



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

G`ALATOVA MOHIGULNING

O'ZBEK TILIDA YORDAMCHI SO'ZLAR PRESUPPOZITSIYASI

MAVZUSIDAGI BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

D.A.NABIYEVA

Andijon – 2014

MUNDARIJA

ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....1-5

KIRISH

I BOB. PRAGMATIKA VA PRESUPPOZITSIYA

1§. Presuppozitsiyaning o'rganilishi.....

2§. Mantiqiy va lingvistik presuppozitsiya.....

II BOB. PRAGMATIKA VA YORDAMCHI SO'ZLAR

1§. Ko'makchilarda pressuppozitsion xususiyatlar.....

2§. Yuklamalar presuppozitsiyasi.....

3§. O'zbek tilida bog'lovchilar presuppozitsiyasi.....

UMUMIY XULOSALAR.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Barchamizga ma'lumki, mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng hamma sohalarda ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham ma'naviy, ham madaniy sohada yangidan yangi islohotlar uchun eshiklar ochildi. Milliy gu'rur, milliy ong tushunchalarini anglashga, madaniy va ilmiy me'roslarimizni o'rganishga tadqiq qilishga keng imkoniyatlar berildi. Bu haqida prezidentimiz I.A.Karimov shunday deydi: „Buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma'naviy me'rosi, ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma'naviy hayotimizni tiklay boshladik. Dinimiz va tilimizga qaytdik. Milliy urf-odatlarimiz va an'analarimiz, xullas, inson ma'naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlayapti”.¹

Bu davrga kelib tilshunoslik sohasida ham salmoqli yutuqlarga erishildi. Tilimizning keng imkoniyatlarini ochib beruvchi ko'pgina ilmiy ishlar, monografiyalar e'lon qilindi. „Zero ona tiliga muhabbat, uni ulug'lash, beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usini ham bizning onggu tafakkurimizga, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib kelgan”².

Hozirgi kunda tilshunosligimizda bir nechta yangi yo'nalishlar qatorida pragmalingsvistika ham rivojlanib kelmoqda va ularni chuqur o'rganish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan ularni tilshunoslik jihatidan tadqiq etish o'zbek tilshunosligi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalar mavzu dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilshunosligida presuppozitsiya hodisasi N. Mahmudov, A. Nurmonov, O. Bozorov, S. Boymirzayeva, D. Lutfullayeva, U. Rahimov, A. Pardayev kabi tilshunoslar tomonidan chuqur tadqiq qilingan.

Dastlab N. Mahmudov o'zining „Presuppozitsiya va gap” maqolasida presuppo-

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin

² Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.

zitsiya haqida ma'lumot bergan. Keyinchalik A. Nurmonov uning gap semantikasi qurilishidagi ahamiyati haqidagi fikrlari bilan to'ldirdi. Bu til hodisasini A. Nurmonov faqat gap semantika qurilishidagi tarkibida emas, yordamchi so'zlar, aniqrog'i, ko'makchilar doirasida ham o'rgangan.

Yuklamalar doirasida esa presuppozitsiya hodisasini U. Rahimov keng tadqiq qilgan va dissertatsiya yoqlagan. Lekin bog'lovchilar doirasida to'la holda tadqiq etilmagan. Ushbu bitiruv malakaviy ishi mazkur mavzuda amalga oshirilgan tadqiqotlardan biridir.

BMIning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. **Bitiruv malakaviy ishi Andijon davlat universiteti Tilshunoslik kafedrasining «O'zbek tilining sistemaviy tadqiqi» mavzusidagi istiqbolli rejasi asosida amalga oshirildi.**

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi matnning va umuman turli ko'rinishdagi nutqiy tuzilmalarining mazmunini belgilovchi pragmatik hodisalardan biri bo'lgan presuppozitsiyani yordamchi so'zlar doirasida o'rganish va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsad asosida quyidagi vazifalar o'rtaga qo'yildi:

- o'zbek tilshunosligida presuppozitsiya hodisasini tarixiy ildizlarini aniqlash;
- mantiqiy va lingvistik presuppozitsiyani bir-biridan farqlash;
- presuppozitsiyaning til sathidagi ahamiyatini aniqlash;
- yordamchi so'zlar presuppozitsiyasining o'zbek tilshunosligidagi o'ziga xosligini aniqlash va boshqalar.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti . Ishning tadqiqot obyekti o'zbek tilshunosligidagi yordamchi so'zlar presuppozitsiyasi tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishi metodlari. Ishning metodologik asosini dialektik mantiq qonuniyatlari tashkil etadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ham qiyoslash, ham tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Biz bilamizki, presuppozitsiyaga bag'ishlangan ilmiy ishlar talaygina. Tadqiqot jarayonida:

- til tizimining sistemaviyligi va yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omillari izohlandi;
- tilshunoslik fanining alohida bo'limi sifatida pragmatikaning shakllanishi haqidagi fikrlar;
- tilshunoslikning boshqa sohalari bilan pragmatikaning aloqasi aniqlandi;
- pragmalingvistika oldida turgan vazifalar sanab o'tildi;
- tilshunoslikda presuppozitsiya hodisasini ifodalovchi til birlklarini ma'lum bir tizim asosida kompleks tarzda tavsiflashga ma'lum darajada hissa qo'shildi.

BMI natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati tilshunoslik fanining nisbatan yangi sohasi hisoblanmish pragmatika fanining bugunga qadar erishgan yutuqlarini o'rganish, ularni umumlashtirish, uning istiqboli haqidagi nazariy qarashlarni ilmiy tahlil etishga qaratilgan.

Tadqiqotda til tizimining sistemaviylik va yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omillari izohlanishi, pragmatika tilshunoslik fanining alohida bo'limi sifatida shakllanishining tarixiy ildizlari aniqlash tilshunosligimizdagi nazariy bilimlarga qo'shilgan ma'lum bir hissadir. Ish materiallidan „Umumiy tilshunoslik“, „Tilshunoslik nazariyasi“, „Lingvopragmatika asoslari“, „Pragmatikaga kirish“ kurslari bo'yicha qo'llanmalar yaratish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

KIRISH

Ma'lumki, presuppozitsiyaning til sathidagi ahamiyati tilning mohiyatini belgilaydigan tejamlilik tamoyillari bilan belgilanadi.

Presuppozitsiya hodisasi, hammaga ma'lumki, dastlab falsafa fani tarkibida, so'ng mantiq ilmida keyinchalik esa tilshunoslik sohasiga ko'chgan va shu sohalar tarkibida o'rganilgan va hozirgacha o'rganilib kelinayotgan hodisa sanaladi.

Presuppozitsiya jahon tilshunosligida, asosan, semantik sintaksis doirasida o'rganilgan va mazmuniy sintaksisning dolzarb masalalaridan biri sifatida baholangan. Mazkur hodisaning o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi N. Mahmudov, A. Nurmonov, D. Lutfullayeva va ularning shogirdlari faoliyati bilan bog'liq. Presuppozitsiya semantik sintaksis tushunchasi bo'lishiga qaramay diskurs nazariyasi va diskursiv tahlilda alohida ahamiyatga ega. Bu atama tilimizdagi tagma'no, ya'ni yuzada berilmagan, lekin tinglovchi tushunishi, anglashi ko'zlangan maqsad va ifoda bilan uzviy bog'liq tushunchadir. Shuning uchun u tinglovchi farosati – yuzada bir narsani ko'rib turgani holda uning ostida nimayotganligini uqishi, ilg'ay olishi bilan bg'liq. Bu ma'no va maqsadni xalqimiz yana „qizim senga aytaman, kelinim sen eshit“ hikmatli so'zi bilan ham ifodalaydi.

Presuppozitsiyaning til sathidagi ahamiyati tilning mohiyatini belgilaydigan qisqalik, tejamlilik tamoyillari bilan izohlanadi. Shu ma'noda N. Mahmudovning quyidagi fikri diqqatga sazovordir: „*Har qanday tekst presuppozitsiyaga ko'ra, formal jihatdan ixchamlashib, qisqarib boradi. Til taraqqiyotining yetakchi tendensiyasi bo'lgan til vositalarining ekonomiyasi tendensiyasi presuppozitsiyalarni formal tasvirlash lozim bo'lsa, unda tekst hajman kattalashadi. Nuta temasi bilan tinglovchi (o'quvchi) tanish bo'lmagan holatlarda zaruriy ravishda shunday qilinadi ham, ya'ni ayni nutq bilan bog'liq presuppozitsiyalar birin – ketin eksplitsit*

tasvirlanadi”.³ Binobarin, presuppozitsiyaning keng o’rganilishi kelgusida nafaqat sintaktiksemantikaning mazmuniy murakkablashuvi bilan bog’liq bir qator muammolarni hal qilishda, balki diskurs samaradorligini, adresantning adresatga ta’sir darajasini oshirishda ham yordam beradi.

Presuppozitsiya go’yo so’zlovchi va tinglovchi o’rtasida til birliklari asosida tuzilgan o’zaro shartnoma sifatida yuzaga keladi va u gapning vaziyat, matn, so’zlovchi va tinglovchiga oldindan ma’lum bo’lgan bilimlar xazinasikabi urakkab uzvlar bilan chambarchas bog’liq. Shuning uchun har qanday gap presuppozitsion, ya’ni gapda ifodalangan fikr ostida nima yotganligi nuqtai nazaridan tahlil etilmasa, to’g’ri baholanmasligi mumkin.⁴

N. Mahmudov „Presuppozitsiya va gap” maqolasida ilk bor bu tushuncha haqida ma’lumot berdi, uning falsafadan, mantiqdan lingvistik tahlilga kirib kelish bosqichlarini sharhladi. A. Nurmonov esa bu hodisaning gap semantik qurilishidagi ahamiyatini sharhlash bilan to’ldirdi, uni nutqimiz tahliliga tadbiiq etish qanday natijalar berishini yorqin misollarda ko’rsatdi. Ushbu hodisaga „Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko’nikmalari bilan bog’liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyati bo’lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslanuvchi ko’rinishidir”, tarzida ham ta’rif berilgan.⁵

Lison va nutq mohiyatan bir butunlik bo’lgan nutq faoliyatining ikki tomonidir va ularni bir biridan uzish mutlaqo mumkin emas. Ularga dialektik falsafaning, bir tomondan, umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab, zaruriyat, majburiyat (UMISM), ikkinchi tomondan, alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat, tasodif, erkinlik (AHVOE)

³ N. Mahmudov. Presuppozitsiya va gap // O’zbek tili vba adabiyoti. 1986, 6-son. 31-bet

⁴ U. Rahimov. O’zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Filol. Fan. Nomz. ...dis. Avtoref. Samarqand, 1994. 23-bet.

⁵ Z. Burhonov. O’zbek tilida ko’makchilar va ularga vazifadosh kelishikklar pragmatikasi (pragmatic aspekt): Filol. fan. nomz.dis. avtoref. T., 2008. 5-bet.

kabi kategoriyalari orasidagi munosabatlar nuqtai nazaridangina yondashish mumkin. Bunda alohidalik - umumiylikning, hodisa - mohiyatning, voqelik - imkoniyatning, oqibat - sababning, tasodif - zaruratning, erkinlik - majburiyatning yuzaga chiqishi, voqelanishi, moddiy shaklda bevosita kuzatishda berilgan ko`rinishidir. Shuning uchun har bir alohidalik bevosita ko`zatishda berilmagan, idrokiy usul bilan ochiladigan, aql bilan ilg`ab olinadigan umumiylikning, har bir hodisa - shunday mohiyatning, voqelik - imkoniyatning, oqibat esa sababning, tasodif zaruratning, erkinlik majburiyatning - umuman har bir AHVO o`zi aloqador bo`lgan bir UMISning tajallisi ekanligini hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak.

Insonni o`rab turgan obyektiv olamdagi voqea-hodisalar, predmetlar to`g`risidagi tushunchalar tilda o`z aksini topadi.

I BOB. PRAGMATIKA VA PRESUPPOZITSIYA

1§. Presuppozitsiyaning o`rganilishi

Barchamizga ma`lumki, presuppozitsiyani o`rganilishi haqida gapirishdan oldin pragmatika haqida to`xtalmaslikning iloji yo`q. Chunki pragmatika va presuppozitsiyani bir-biridan ajratgan holda o`rganib bo`lmaydi.

XX asrning 50-yillaridan so`ng tilshunoslikka pragmatik yondashish keng tus oldi. Pragmatika- pragmatik lingvistika, pragmalingvistika, pragmafonologiya, pragmafonetika, pragmagrammatika, pragmasintaksis kabi yangi tushuncha va atamalar, bu tushuncha va atamalar ostida esa til hodisalariga yangicha yondashish, ularni yangicha talqin qilish bilan bog`liq bo`lgan yangi tushunchalar va tahlil usullari keng ommalashdi.

Pragmatikaning lug`aviy ma`nosi yunoncha „pragma“ so`zidan tarjima qilinganda ish, harakat ma`nolarini anglatadi. „Pragmatika“ termini 30-yillarning

oxirida Ch. U. Morris tomonidan semiotikaning bir bo'limi sifatida kiritilgan. Ch. Morris semiotikani uchga bo'lgan.

1. Semantika- belgilarning obyektga bo'lgan munosabatini o'rganadi;
2. Sintaksis belgilararo munosabat;
3. Pragmatika- so'zlovchi til belgilariga munosabatini tadqiq qiluvchi bo'lim.

Dastlabki izohlarda ushbu uch soha yonma –yon joy olgan bo'lsada, Morris keyinchalik „pragmatika“ tushunchasini qolgan ikki soha- sintaksis va semantika-ga nisbatan ancha keng ekanligini qayd etadi.

Ba'zi manbalarda esa pragmatika falsafiy tushuncha sifatida fanga kirib kelganligi aytib o'tiladi. Jumladan, „Pragmatika aslida falsafiy tushuncha bo'lib, u Sokratdan oldingi davrlarda ham qo'llanishda bo'lgan va keyinchalik uni J. Lokk, E. Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar. Shu tariqa falsafada pragmatism oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX- XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30- yillarida pragmatism g'oyalarining keng targ'ibi aniq sezila boshladi. Amerika va Yevropada bu targ'ibotning keng yoyilishida Ch. Pirs, R. Karnap, Ch. Morris, L. Vitgenshteyn kabilarning xizmatlarini alohida qayd etish kerak.⁶

Ch. Pirs g'oyalari bilan kuchaytirilgan pragmatikaning tilshunoslik tadqiqoti doirasi sifatida ajralib chiqishi va shakllanishi 60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshlarida J. Ostin, J. R. Syorl, P.F. Strosen va boshqalarning nutq hodisalari mantiqiy-falsafiy teoriyasi ta'siri ostida boshlangan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Amerikada hukmron bo'lgan falsafiy pragmatism yo'nalishining asoschilaridan biri Charlz Sanders Pirs (1839-1914) edi. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g'oyasi semiotic belgining (shu jumladan lisoniy belgining ham) ma'no-mazmunini ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog'liq holda o'rganishdir. Bu tamoyil

⁶ Sh. Safarov. Pragmatika.-Toshkent, 2008. -40-41-bet

muallifi Ch. Pirs birinchilardan bo'lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat subyekti omilini inobatga olish lozimligini uqtiradi.

Ch. Pirsning talqinicha belgining munosabat maydoni uch yo'nalishdan iborat:

- 1) belgi, aniqrog'i – reprezentamen, biror narsaning o'rnini almashtiruvchi moddiy ko'rinishga ega bo'lgan vosita;
- 2) idrok etuvchining ongidan o'rin olgan va belgining tavsifini beruvchi vosita-interpretanta;
- 3) belgida aks topayotgan obyekt.

S. Pirs va semiotikani yoqlovchilar belgilarning kommunikativ aloqasini ta'kidlaydi. Charls Morris esa semiotikani yana sintaktika semantika va pragmatikaga ajratadi. Bunda pragmatika belgilar va uni talqin qiluvchi o'rtasidagi munosabatni anglatadi.

Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi.

Pragmatikaning tilshunoslikka munosabati haqida fanda xilma-xil qarashlar mavjud. Ayrim tilshunoslar, chunonchi, V. Dresslar „Pragmatika tilshunoslikka aloqador emas” deb yozadi.⁷ Lekin pragmatikani tilshunoslikdan batamom uza-digan olimlar sanoqli. Ularning ko'pchiligi pragmatikaga tilshunoslikning bir oqimi, yo'nalish maktabi- sereqirra til va nutq jarayonlarining alohida bir qirrasini o'rganishga va tavsif etishga ixtisoslashgan deb biladi. Pragmatikani tilshunoslikning bir sohasi deb talqin qiluvchi olimlar ham „Pragmatika nima?”, „Uning tadqiq manbai nimadan iborat? ”, „U serqirra nutq faoliyatining qaysi jihatlarini o'rganadi?” degan savollarga turlicha javob beradilar. Ayrim tilshunoslar pragmatikani lisoniy

⁷ Sh. Safarov. Nutqning etnosotsiopragsmatik tahlili asoslari. –Samarqand, 2007. -18-19-bet

vositalarning qo'llanishida, matndagi munosabatlarga bog'liq ravishda o'rganuvchi fan deb hisoblasalar, boshqalar uni ko'zlagan maqsadni qo'lga kiritish uchun lisoniy vositalardan foydalanish usullari deb tushunadilar. Bundan tashqari, pragmatikaning semantik information talqini ham mavjud bo'lib, unda pragmatikaning tadqiq manbai aloqa-aralashuv jarayonining amaliy natijasi, maqsadi va uning amaliy samarasidir deb baholaydilar. Qanday bo'lmasin, pragmatika yuqorida sanab o'tilgan har uch talqinga ko'ra, u nutq jarayoni bilan uzviy bog'liq holda ko'riladi va tilshunoslik faniga bevosita aloqador hisoblanadi. Pragmatika tilshunoslikning bir tarmog'i, aniqroq qilib aytganda, nutq birliklarining nutq jarayonida boshqa nolisoniy vositalar bilan birgalikda qo'llanishini, uning samaradorligini o'rganuvchi fan tarmog'i, oqimidir.

Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, etika- estetika va boshqa fanlar nutq tizimining alohida-alohida olingan tarkibiy qismlari bo'lgan elementlarni shu tizimidan ajratib, ushbu ajratib olgan elementini o'xshashlik (bir xil mavqeda qo'llay olish) tamoyili asosida tahlil qiladi. Pragmatika shunday turli tizimlarga mansub bo'lgan insoniy faoliyatning bir ko'rinishi bo'lgan diskursda mana shu elementlarning bir butunligi, bir mikrosistema sifatida voqealanishini o'rganadi.

Semantika og'zaki nutqning ijtimoiy lingvistik va boshqa nolingvistik komponentlarini yetarli darajada tushuntira olmasligi pragmatikaning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shunga ko'ra pragmatika qaysidir ma'noda sotsiolingvistika va semantika bilan ish olib boruvchi tadqiqotning yangi sohasidir.

Muloqot jarayonida so'zlovchilar tomonidan tilning qo'llanilishi va so'zlovchilarning pragmatik bilimlarini birlashtiruvchi sifatida pragmatika ritorika, sitilistika, nutq nazariyasi va tipologiyasi, nutq faoliyati, sotsiolingvistika, psixolingvistika va shu kabi doiralarda uzoq o'rganilish tarixiga ega bo'lgan ko'plab muammolarni qamrab oldi.

Pragmatika nutq va axloqiy, insoniy xatti-harakat, ruhiy faoliyat bilan bog'lik bo'lgan ko'plab fanlarning kesishish nuqtasida turadi.

Pragmatika struktur tilshunoslik, stilistika, nutq madaniyati, poetika va lingvopoetika, psixolingvistika, etika va estetika kabi fanlar bilan, umuman insonning ongli va ongsiz madaniy va tabiiy xatti-harakati bilan bog'lik bo'lgan, kulturologiya umumiy nomi bilan birlashadigan fanlarning barchasi bilan yaqin aloqada bo'ladi. Ammo ularning birortasi pragmatikaning o'rnini to'la-to'kis bosa olmaydi.

Pragmatikaning «qayta tug'ilish davri» deb e'tirof etilgan 1970-yildan boshlab, xorijiy tilshunoslikda haqiqiy pragmatik ko'tarilish yuzaga keldi. Bu mavzuga oid qator anjumanlar, yig'inlar o'tkazildi.

Bu darajada jadal taraqqiy etayotgan fan sohasining to'lig'icha shakllanishi, o'zligini ajratib olishi uchun uning asosiy tamoyillari, tushunchalari, predmetini belgilab olish zarurati yuzaga keldi. Ammo hali hanuz, chuqur izlanishlarga qaramay bu muammo muammoligicha qolmoqda.

Keyingi yillarda deyarli barcha tilshunoslar «pragmatika» atamasini qo'llamoqda. Buning oqibatida esa, o'ziga xos pragmatik «fetishizm» holati paydo bo'lib, bajarilgan tadqiqotlarda atamaning qo'llanishidan tashqari, uning mazmuniga oid biror bir ma'lumotni topish qiyinlashib bormoqda. Lozim bo'lsa bo'lmasa atama qo'llanaversa, uning negizida turgan tushunchaning siyqalanishiga olib kelinishi turgan gap. Shuning uchun, lisoniy birliklar pragmatik xususiyatlari, ularning tahlili haqida gapirishdan oldin «Pragmatika nima bilan shug'ullanadi?», «Uning tadqiqot obyekti va predmeti nimadan iborat?», «Pragmatikaning asosiy tushunchalari, tamoyillari qaysilar?» kabi savollarga javob izlash lozim.

Pragmatikaning predmetini aniqlashga ilk bor harakat qilgan tilshunoslardan biri G.Klaus edi. U o'z asarida pragmatikani «belgilar va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi va qabul qiluvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni

o'rganuvchi» fan sifatida ta'riflaydi⁸. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G.Klaus ham boshqa semiotiklar, Ch.Pirs, Ch.Morris, Yu.S.Stepanovlar, kabi belgi va uni idrok etuvchi - interpretator munosabatidan uzoqlashmaydi. Hatto uning «pragmatika dastlabki o'rinda lisoniy belgilarning psixologik va sotsiologik tomonlarini o'rganuvchi nazariyadir» (Klaus. 1967. 22b) degan xulosasi ham pragmatika tushunchasini tor mazmunda tavsiflaydi.

J. Layonz pragmatikaning predmetini aniqlash va unga ta'rif berishga harakat qilib shunday deydi: «Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axbarotni xuddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi deyish demakdir».

Ammo S. Levinson ta'rifiga yuzlanadigan bo'lsak u J. Layonz keltirgan ta'rifga nisbatan boshqacharoq ta'rifni keltiradi ya'ni uning ta'rificha: «Pragmatika tildan foydalanuvchilar gaplarining kontekstda o'rinli qo'llanilayotganligini o'rganuvchi sohadir».

Ma'lum propositsiya turli darajadagi sintaktik struktura orqali ifodalanadi: gap orqali, oborotlar orqali, hatto soda gap tarkibidagi ayrim so'zlar va grammatik shakllar ham alohida propositsiya ifodalab, shu soda gapni semantik murakkablashtirishi mumkin. Mazkur holatda ayrim so'z yoki grammatik shakl orqali ifodalangan propositsiya o'zining eng ixcham shakliga ega bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi uchun uning tushunarli bo'lishida presuppozitsiya yordamga keladi. Shuning uchun keying davrlarda gapning presuppozitsiya tomoni lingvistlar diqqatini ko'proq jalb etmoqda⁹. Shunga qaramay, presuppozitsiya turlicha talqin qilinadi.

⁸ Sh. Safarov. Pragmalingvistika.-Toshkent, 2008.-57-bet

⁹ Арутюнова Н.Д. Понятие презумпции в лингвистической семантике //Семантика и информатика.-М., 1977. №8; Богданов В.В. Семантико-синтаксическая организация предложения. – Л., 1977ю –С. 135; Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. –М., 1981. –С.14; Крейдлин Г.Е. Лексема «даже» // Семантика и информатика. –М., 1975. № 6; Торопова Н.А. К исследованию логических

Presuppozitsiya (prezumpsiya) tushunchasi nemis mantiqshunosi G. Frege g'oyalari bilan bog'liq. Uning ta'kidlashicha, presuppozitsiya hukmning tabiiy asosidir. Masalan, „Kepler bechoralikdan olamdan o'tdi“, „Kepler bechoralikdan olamdan o'tmadi“ gaplarida „Kepler“ degan odamning yashagani haqidagi hukmga tabiiy asos mavjud. G. Frege fikricha, asosiy hukm ko'pincha boshqa yashirin hukm bilan birga keladi. U mavjudlik bildiruvchi ikkinchi darajali yashirin hukmnigina persuppozitsiya hisoblaydi¹⁰.

E. Kinen amaliy va mantiqiy presuppozitsiyalarga ajratishni tavsiya etadi. Birinchisi so'zlovchining individual bilimi strukturasi, ikkinchisi esa gaplar o'rtasidagi semantik munosabatda aks etadi¹¹.

L.M.Vasilyev ma'no komponentlarini ma'lum ma'noga bog'lanish darajasiga ko'ra murabbiy va fakultativ (potensial) ma'no komponentlariga bo'ladi. Ulardan birinchisi ma'noning signifikativ (semantik) aspektiga oid va uning til birligi sifatida mavjud bo'lishi uchun albatta zarur bo'lsa, ikkinchisi denotative aspektga-presuppozitsiya planiga oidligini va bu komponent faqat nutqda presupozitsiya orqali anglashilishini ko'rsatadi¹².

Olimning fikricha, fakultativ komponentlar ma'noning semiotik imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, *xabar qildi* konstruktsiyasi ma'nosida xabar qilish usullari *aytmoq, yozmoq, telefon qilmoq, telegramma bermoq* kabi fe'llar orqali ifodalanishi mumkin bo'lgan fakultativ komponentlar mavjud. Yuqoridagi konstruktsiyada xabar qilishning qaysi usulidan foydalangani faqat presuppozitsiya plani til egalarining til haqidagi amaliy bilimlari orqali ma'lum bo'ladi.

частиц // ВЯ. 1978. № 5; Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap // O'zbek tili va adabiyoti. 1986. № 6; Nurmonov A. O'zbek tilida ko'makchili konstruktsiyalar presuppozitsiyasi // O'zbek tili va adabiyoti. 1986. №6 va boshqalar.

¹⁰ Семантика и информатика.-М.,1977. №8

¹¹ Богданов В.В. Семантико-синтаксическая организация предложения. –Л., 1977. – С. 135-138.

¹² Васильев Л.М. Семантика русского глагола. –М., 1981.-С.25.

V.Gumboltning „Har qanday tushunish bir vaqtning o'zida tushunmasliklar” antinomiysi, A.Potebnyaning so'zlarning „Obraz markazi” („yaqin ma'no”) va „uzoq ma'no”lari kabi individual- psixologik qarashlari ham hozirgi tilshunoslikdagi presuppozitsiya tushunchasi bilan bevosita bog'liq.

Tilshunoslikda presuppozitsiya terminining qo'llanilishi P. Strosen nomi bilan bog'langan. U tilda implikasiyaning alohida turi bor ekanini ko'rsatadi. Implikasiyaning mazkur turi G.Fregening „tabiiy asos”iga juda yaqin talqin etiladi. Har ikki muallif presuppozitsiyani ham gaplar o'rtasidagi semantik munosabatdan keltirib chiqaradi. Bu munosabat „X uni taqazo etadi” formulasi orqali ko'rsatiladi. „Meri komnatani tozaladi” konstruktsiyasida „komnataning iflos ekani” presuppozitsiyasi mavjud. „Meri komnatani tozalamadi” konstruktsiyasida ham shu presuppozitsiya saqlanadi¹³.

Hozirgi kunda presuppozitsiyani ma'lum jumla va u ifodalayotgan propozitsiyaning to'g'ri tushunilishiga imkon beradigan so'zlovchilar o'rtasidagi „bilishning umumiy fondi”, „oldindan bilishning jami” sifatida belgilash kengroq tus olmoqda¹⁴.

Shuning uchun tilshunoslikda presuppozitsiya termini ostida muayyan jumla tarkibida bevosita ifodalanmagan, yashirin holda aks etgan ma'no tushuniladi.

Presuppozitsiya tushunchasi kontekst (ushbu til birligining lingvistik qurshovi) va vaziyat (ushbu jumlaning ekstralingvistik substrati, yuzaga chiqish shart-sharoiti) tushunchalarini o'z ichiga oladi¹⁵. Masalan, *Bugun instruktorimizni qoldirdim, dada* (A. Qahhor) jumlasidagi axborot kontekst bilan bog'liq. Axborot temasi bo'lgan „shaxmat” kontekstdan ma'lum. Oldingi jumlada gap shaxmat haqida boradi, shuning uchun yuqoridagi gap „instruktorimiz bilan shaxmat o'ynadim” presuppozitsiyasiga ega. Kontekstdan tashqarida presuppozitsiya uchun yo'l yopiladi.

¹³ Торопова Н.А. К исследованию логических частиц // ВЯ. –М., 1977. –С.83.

¹⁴ Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. –М., 1981. –С.14

¹⁵ Богданов В.В. Семантико-синтаксическая организация предложения. –Л., 1977. – С.137

Kishilarning o'zi qurshab turgan olam haqidagi universal bilimlari va til haqidagi ko'nikmalari natijasida ayrim so'zlarning leksik ma'nolarida ham presuppozitsiyaga yo'l ochilishi mumkin. Masalan, *Men Toshkentdan Samarqandga uchdim* jumlasida „Samolyotda keldim” presuppozitsiyasi mavjud. „Uchmoq” so'zining leksik ma'nosi va til haqidagi umumiy bilish fondi so'zlovchilar uchun presuppozitsiyaga yo'l ochadi.

Presuppozitsiya sintaktik konstruksiyalarning ma'no aspekti bilan uzviy bog'liq.

V.V.Bogdanov presuppozitsiyaning gap semantikasi aspekti ekanini ta'kidlaydi¹⁶. N.D.Arutyunova ham presuppozitsiya „so'zlovchilarning umumiy bilish fondi”, „ularning oldindan kelishuvi” sifatida gap semantikasiga kirishini ko'rsatadi¹⁷. Keyingi tadqiqotlarda semantikadan pragmatika ajratilmoqda. Presuppozitsiya pragmatika tarkibiga kiritilmoqda.

Tadqiqotchilar presuppozitsiyani turlicha tasniflaydilar. Jumladan, V.G.Gak presuppozitsiyaning quyidagi tiplarini ko'rsatadi: 1) keng presuppozitsiya; 2) tor presuppozitsiya; 3) lingvistik presuppozitsiya.

Keng presuppozitsiya ostida kishilarning o'zini qamrab turgan obyektiv reallik haqidagi universal bilimi tushuniladi. Obyektiv borliqda har bir predmetning tipik, xarakterli xususiyati, ma'lum narsaga moslanishi mavjud. Predmetlarning ana shunday xususiyatlarini tavsiflashda konkret ma'noli so'z umumiyroq so'z bilan almashinishi yoki butunlay tushib qolishi mumkin. Ammo so'zlovchi va tinglovchi bir-birini to'g'ri tushunishi uchun uning tushib qolishi hech qanday rol o'ynamaydi. Masalan, shafyor haqida gap ketganda, so'zlovchi va tinglovchi, eng avvalo, uni mashina haydovchisi deb biladi. Shuning uchun *Shafyor mashinani tez haydadi* jumlasida mashina so'zi tushib qolsada, ma'noga putur yetkazmaydi.

¹⁶ O'sha joyda

¹⁷ Арутюнова Н.Д. Понятие презумпции в лингвистической семантике // Семантика и информатика. - М., 1977. №8. – С.85.

Tor presuppozitsiya ostida esa faqat ma'lum vaziyat doirasidagina ro'y beradigan presuppozitsiya tushuniladi. So'zlovchilarning shu tilni bilish tajribasi kelib chiqadigan presuppozitsiya lingvistik presuppozitsiya hisoblanadi¹⁸.

Y.V.Pudacheva presuppozitsiyaning (prezumptsiyaning) ikki turini ko'rsatadi: 1) semantic prezumptsiya- bu yolg'onligi gapning semantic chalaligiga olib keladigan semantik component; 2) pragmatik prezumptsiya- bu gapning shunday komponentiki, so'zlovchi uning normal qo'llanilishida tinglovchi uchun ma'lum deb hisoblaydi.

N.A.Toropova ham presuppozitsiyani ikki guruhga bo'ladi: 1) zidlanuvchi a'zolar presuppozitsiyasi; 2) kutilgan presuppozitsiya.

Shunday qilib, bugunga qadar presuppozitsiyaning bir belgiga asoslangan, hamma e'tirof etuvchi aniq tasnifi mavjud emas. Presuppozitsiya tushunchasi assertsiya (tasdiq) tushunchasi bilan bog'liq.

N.A.Toropova presuppozitsiya va assertsiya tushunchalari o'zaro „aniqlik-noaniqlik“ belgisiga ko'ra farqlanishini ko'rsatadi. Presuppozitsiya gapning kontekstga xoslangan ma'nosi, assertsiya esa unga bog'liq bo'lmagan ma'nosidir. Masalan, predikat ot *artist* so'zining presuppozitsiyasi subyektiv semantik belgisiga muvofiq keladi. Qiyoslang: Bu yerda bir „artist“ bor jumlasidan mantiqan ikki tasdiq kelib chiqadi: 1) bu yerda bir odam bor; 2)bu odam ustomon(yolg'onchi).

Tahlil qilinayotgan gap tarkibidagi ot semantikasi tasniflovchi va xarakterlovchi belgilarni o'z ichiga oladi. „Artist“ (yolg'onchi, ustomon ma'nosida) so'zida „odam“, „yoshi kattaroq“, „erkak kishi“ belgilari uning tasniflovchi belgilari hisoblanadi.

Bu odam artist jumlasida „odam“ ma'nosi „artist“ so'zining taksonomik belgisida mavjud. Shuning uchun uning bevosita qo'llanishi presuppozitiv funksiya emas, balki assertsiv funksiya bajaradi.

Bu yerda „artist“ bor tipidagi mavjudlik bildiruvchi gaplardagi otning barcha semantik komponentlari butun jumla uchun xarakterlidir. Shunday qilib, tasniflovchi

¹⁸ Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. –М., 1981. –С.14

belgilar ekzistensial ma'lumot uchun ahamiyatlidir. Uning xarakterlovchi belgilari esa subyektga xarakteristika beruvchi axborot uchun qimmatli.

Presuppozitsiya gapning actual bo'linishi bilan ham ma'lum darajada bog'lanadi. Ayniqsa, ularning aloqasi sintaktik konstruktsiya tarkibida mantiqiy urg'u ostidagi fokus orqali namoyon bo'ladi.

V.V.Bogdanovning ta'kidlashiga ko'ra, agar gapda fokus bo'lsa, u bir vaqtning o'zida rema hisoblanadi. Odatdagi sharoitda rema o'z ichiga bir va bir necha so'zlarni birlashtirishi mumkin, fokus esa ularni minimumgacha qisqartiradi¹⁹. Masalan, *men qiziq kitoblarni o'qiyman* jumlasida *qiziq* so'zi fokus bo'lsa, u rema, boshqa so'zlar esa tema hisoblanadi. Shu bilan birga, fokus doimo presuppozitsiya ta'sir doirasida turadi. Xususan, mantiqiy urg'u *qiziq* so'ziga tushgan yuqoridagi jumladan *boshqa kitoblarni o'qimayman* presuppozitsiyasi kelib chiqadi.

Aktuallashishning boshqa vositalari: so'z tartibining o'zgarishi yordamida aktuallashish, leksik va grammatik vositalar yordamida aktuallashish va boshqalar ham presuppozitsiya bilan chambarchas bog'liq. Bularning hammasi actual bo'linishi bilan presuppozitsiya tushunchalarining bir-biri bilan murakkab aloqasi haqida guvohlik beradi.

Shunga qaramay, actual bo'linish va presuppozitsiya shakily va mazmuniy jihatdan o'zaro farqli belgilarga ega.

V.V.Bogdanov fikricha, ularning shakliy farqlari shundan iboratki, presuppozitsiya uchun minimum ikki predikat ifodaning bo'lishi, ularning biri ikkinchisi ichida yashirin holda mavjud bo'lishi xarakterlidir. Masalan, *Karim uy quryapti* predikat ifodasi ichida yashirin holda *uy qurilyapti* predikat ifodasi mavjud. Ikkinchi ifoda birinchisining presuppozitsiyasidir. Aktual bo'linish komponentlari esa bir predikat ifoda doirasida ajratiladi.

¹⁹ Богданов В.В. Семантико-синтаксическая организация предложения. –Л., 1977. – С.140.

Ular o'rtasidagi mazmuniy farq shundan iboratki, aktual bo'linish *ma'lum* va *yangilarni* jumla tarkibidan ajratishga mo'ljallangan. *Ma'lum* shu jumlani oldingi jumlagacha bog'lab, tekst yasash uchun xizmat qilsa, *yangi* shu jumla ma'nosini olg'acha siljitadi. Presuppozitsiya esa gapning funksional tomoni bilan bog'lanmaydi. Aktual struktura gapning shakliy tomonini ham qamrab olsa, presuppozitsiya bunday xususiyatga ega emas (masalan, L.Shcherbaning „Глакая куздра штекс будланула...” „jumlasida”da „sintaktik elementlarni” aktual jihatdan ajratish mumkin, ammo presuppozitsiya bunga ta'sir qilmaydi).

Demak, gapning aktual bo'linishi va presuppozitsiya o'zaro bog'liq hodisalar bo'lsada, ammo ular o'rtasida mazmuniy va shakliy tomondan muhim farqlar bor.

Ko'pincha o'zaro semantik yaqin bo'lgan, bir sinfga kiruvchi, bir-biriga nisbatlanuvchi tushunchalar presuppozitsiyaga yo'l ochadi. Masalan, *Ahmad ham keldi* jumlasida „Ahmad” tushunchasiga shu tushunchaga yaqin boshqa shaxslar (Karim, Halim, Salim) tushunchasi qo'shilmoqda. Nisbatlanayotgan *Ahmad* va *boshqa* shaxslar (Karim, Halim, Salim) shaxs bildiruvchi so'zlar sifatida bir sinfga kiradi. *Faqat Ahmad keldi* jumlasida esa faqat yuklamasi yordamida Ahmad tushunchasi u mansub bo'lgan boshqa shaxslar sinfidan ajratiladi.

So'zlovchi va tinglovchi uchun boshqa kishilar (bu kishilar kim ekani ham suhbatdoshlar uchun ma'lum) kelmagani faqat yuklamasining ma'nosi va zid a'zolar (Ahmad- boshqa kishilar) orqali ma'lum bo'ladi. O'zaro nisbatlanayotgan a'zolar zid a'zolar hisoblanadi.

Zid a'zolar turli moddiy ifodalanish xususiyatiga ega. 1. Zid a'zolardan faqat bittasi moddiy jihatdan ifodalanib, boshqa zid a'zoni assotsiativ ravishda taqazo qiladi. Masalan:

1. *Ko'prikn**i** biz qurdik.*
 2. *Biz faqat ko'prik qurdik.*
 3. *Biz ko'prigina qurdik.*
 4. *Biz ko'pri**k** ham qurdik.*
 5. *Biz yana ko'prik qurdik.*
 6. *Biz hatto ko'prik qurdik.*
- Yuqoridagi jumlar quyidagi presuppozitsiyalarga yo'l ochadi:

1. *Boshqalari qurmadi.* 2. 3. *Boshqa narsa qurmadik.* 4. *Boshqa narsa ham qurdik.* 5. *Ilgari ham ko'prik qurganmiz.* 6. *Boshqa narsa ham qurdik.* Ostiga chizilgan bo'laklar bir-birini taqazo qiluvchi, o'zaro assotsiativ bog'langan zid a'zolaridir. O'zaro zidlanuvchi a'zolar o'rtasida quyidagicha munosabat mavjud: 1-, 2- 3- gaplarda ayirish, 4-, 5- gaplarda qo'shish, 6- gapda darajalanish munosabati bor.

2. Zid a'zolarining har ikkisi ham moddiy jihatdan ifodalanadi, lekin ularning biri predikat ifodaning nominallashtirish transformasi hisoblanadi va *tashqari*, *boshqa*, *bilan birga*, *o'rniga* ko'makchilari va *emas*, *tugul* yuklamalar bilan birga keladi. Bu ko'makchi va yuklamalar presuppozitsiyaga yo'l ochadi. Shuning uchun ular presuppozitsiya signallari sanaladi. Masalan: 1. *Sendan tashqari hamma keldi.* 2. *O'qish o'rniga ishladi.* 3. *O'qish bilan birga ishladi.* 4. *Karim emas, Halim keldi.* 5. *Karim tugul hatto Halim keldi.* 6. *Nafaqat Karim, hatto Halim keldi.* 7. *Bu qovun emas, asal.* Ostiga chizilgan bo'laklar zid a'zolar sanaladi. Kontr chiziq esa presuppozitsiya signallarini ko'rsatadi. Yuqoridagi jumlar quyidagi presuppozitsiyaga yo'l ochadi: 1. *Sen kelmading.* 2. *O'qimadi.* 3. *O'qidi.* 4. *Karim (kelishi kerak edi) kelmadi.* 5. 6. *Karim keldi.* 7. *Qovun shirinligi asalga o'xshaydi.*

„Matnning va umuman turli ko'rinishdagi nutqiy tuzilmalarning mazmunini belgilovchi hodisalardan biri *presuppozitsiyadir*“²⁰.

Presuppozitsiya maxsus adabiyotlarda inferentsiyaning xususiy ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi va bunda ifodalanayotgan fikr – hukmning haqiqiy yoki o'rinli ekanligi e'tiborga olinadi. Buning uchun esa muloqot ishtirokchilari voqelik, kechayotgan yoki xabar qilinayotgan hodisa haqida biror ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. R. Stolneyker ta'biricha, „presuppozitsiya talab qilinayotgan lisoniy faoliyat ijrosidan oldin implitsit nazarda tutilgan propozitsiyadir“²¹. Masalan, „*Ahmad ikki*

²⁰ Sh. Safarov. Pragmalingvistika.-Toshkent, 2008.-57-bet

²¹ Столнейкер Р.С. Прагматика В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 16: Лингвистическая прагматика. – М: Прогресс, 1985.-С. 419-438.

boshli ilonni ushladi” va „*Ahmad ikki boshli ilonni ushlamadi*”qabilidagi gaplarni matnda qo'llash va ularni tushunish uchun so'zlovchi hamda tinglovchiga ikki boshli ilonning mavjudligi (yoki mavjud emasligi) bir xilda ma'lum bo'lishi kerak.

Presuppozitsiyaning *yashirin hukm, tagma'no* bilan bog'liq ekanligini bundan yuz yillar oldin olmon mantiqshunosi X. Frege aytgan edi. Haqiqatdan ham „*Kumush ning akasi uchta ot sotib oldi*” kalimasini aytish uchun so'zlovchi „*Kumush*” ismli qizning akasi borligini bilishi kerak. Bundan tashqari, so'zlovchi Kumushning faqat birgina akasi borligini va u ot sotib olishga yetarli mablag'ga ega ekanligini ham bilishi mumkin. Bu ma'lumotlarni beruvchi presuppozitsiyalar sohibi so'zlovchidir. Gap esa Kumushning akasi nimani sotib olganligi, uchta hayvon sotib olganligi, xarid qilingan hayvon ot va bu otlar ikkita emas, balki uchta ekanligi haqidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Bu turdagi ma'lumotlar asosida *xulosaviy hukm (entailment)* chiqariladi. Presuppozitsiyaga oid hukmlar esa gap mantiqiy mundarijasi bilan bog'liq emas, degan fikr ham yo'q emas.²²

Hozirgi kunda Havayda yashab ijod qilayotgan pragmalingvist Georg Yulning ushbu fikrini to'lig'icha quvvatlash ma'qulmikan? „Presuppozitsiyaning inson bilan, uning bilim darajasi bilan bog'liq ekanligiga shubha yo'q. ammo ushbu presuppozitsiyaning shakllanishi va hukmning mantiqiy qatorlari paydo bo'lishida lisoniy birliklarning hech qanday ta'siri yo'q, deyishga jur'atim yetmaydi”, -deydi Sh. Safarov. Nutqiy tuzilma tarkibidagi birliklar va ushbu tuzilmaning strukturaviy belgilari presuppozitsiyaga oid ma'lumotni ifodalovchi vositalar xizmatini o'tashini ham hech kim inkor qilgani yo'q. G. Yulning o'zi ham presuppozitsiyaning gap tarkibidagi ma'lum lug'aviy birliklar va sintaktik tuzilmalar bilan bog'liq ekanligiga tayangan holda *leksik va strukturaviy presuppozitsiyalarni* farqlashni taklif qiladi.²³

²² Yule G. *Pragmatics*. – Oxford: Oxford Univ. Press, 1996. 25-bet.

²³ O'sha asar 28-bet

Binobarin, (a) „*U chekishni tashladi*”, (b) „*U shikoyat qila boshladi*”, (v) „*U yana kechikdi*” gaplarining presuppozitsiyalari (a) „*U chekar edi*”, (b) „*Ilgari u shikoyat qilmas edi*”, (v) „*U oldin ham kechikkan edi*” tarzida ekanligini biz faqat „tashlamoq”, „boshlamoq”, „yana” lug’aviy birliklari qo’llanilishiga tayanib aniqlaymiz. Strukturaviy presuppozitsiya (structural presupposition) esa masalan, quyidagi so’roq gaplarda namoyon bo’ladi: (g) „*U qachon ketdi?*” = „*U ketgan*”; (d) „*Velosipedni qayerdan sotib olding?*” = „*Sen velosiped sotib olgansan*”. Ushbu hukmlarning shakllanishi so’roq olmoshli struktura qo’llanishi bilan bo’g’liqdir. A. Nurmonov va uning hammualliflari ham presuppozitsiyaning lisoniy ifodalanish shakliga - moddiy vositasiga, tashqi signallarga ega ekanligini e’tirof etishadi.²⁴ Bunday moddiy vositalar qatoriga turli lug’aviy birliklar, yuklama va ko’makchi kabi larni kiritishadi. Pragmalingvistik adabiyotlarda „presuppozitsiyani faollashtiruvchilar” (presupposition triggers) deb atalayotgan²⁵ ushbu vositalar presuppozitsiyaning „lisoniy libosi” dir, ular vositasida yashirin ma’no yanada botinlashadi.

Umuman, semantik presuppozitsiyaning qariyb barcha turlari aniq lisoniy ko’rsatgichlarga (indikatorlarga) egadir. Buni G.Yul keltirgan quyidagi jadval misolida ham ko’rish mumkin.²⁶

Presuppozitsiya turi	Misol	Presuppozitsiya
Ekzistentsional	Ann sings „En kuylayapti”	Ann exists „En mavjud”
Faktiv	I regret leaving „Ketganimdan afsuslanaman”	I left „Ketdim”

²⁴ Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo’jayev S. O’zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent : Fan, 1992. 115-116- bet.

²⁵ Levinson S. K. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1984. 179-bet.

²⁶ Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford Univ. Press, 1996. 30-bet.

Nofaktiv	He pretended to be happy „U o’zini xursand qilib ko’rsatishga harakat qildi”	He wasn’t happy „U xursand emas edi”
Leksik	He managed to escape „U qochib keta oldi”	He tried to escape „U qochishga harakat qildi”
Strukturaviy	When did she die? „U qachon o’lgan?”	She died „U o’ldi”
Kontrfaktiv	If I weren’t ill „Kasal bo’lmaganimda (edi)”	I am ill „Men kasalman”

Jadval guvohlik berishicha, faktiv va nofaktiv presuppozitsiyalarda xulosaviy hukm voqeaning haqiqatdan sodir bo’layotganligi yoki bo’lganligi fakt ekanligiga asoslanadi hamda ushbu xulosaning ifodalanishida „bilmoq”, „anglamoq”, „afsuslanmoq”, „xabardor bo’lmoq” kabi birliklarning tasdiq va inkor shakllari ishtirok etishadi. Kontrfaktiv presuppozitsiya esa bildirilayotgan ma’lumotning haqiqatga mos emasligiga ishoradir: „*Agarda sen mening do’stim bo’lganingda, menga yordam qilgan bo’lar eding*” = „*Sen mening do’stim emassan*”. Bu tipdagi presuppozitsiya asosan murakkab tarkibli nutqiy tuzilmalarda namoyon bo’ladi va „mantiqiy meros” (inheritance) qoidalariga amal qiladi. Presuppozitsiya ma’nosining bo’lakdan yaxlitga, ergash gapdan bosh gapga, diologik tuzilma boshlanishidan keyingi bo’laklariga o’tishi umumiy kutilgan holdir. Tilshunoslar „presuppozitsiya” tushunchasini faylasuflardan o’zlashtirganliklari ma’lum va falsafadan atamaning ko’pma’noliligi, tavsifiy noaniqliklarining tilshunoslikka ham ko’chishi tabiiydir. Natijada ushbu hodisa turli ko’rsatgichlarga nisbatan turlicha tasnifiy guruhlariga

ajratilib kelinmoqda. Buni hatto ushbu tushunchani tilshunoslikkabirinchilardan bo'lib tadbiq qilgan Pyotr Strosenning qarashlarida ham ko'rish mumkin. Olim o'tgan asrning o'rtalarida²⁷ mantiqshunos B.Rasselning lisoniy birliklarning ma'nosini tavsiflovchi deskriptiv nazariyasini taftish qilayotib, gap ma'nosi va uning nutqiy qo'llanishidagi mazmuni o'rtasidagimunosabatga e'tiborni qaratdi. Shu taxlit semantik va pragmatik presuppozitsiyani farqlash yo'lidagi urinishlar boshlandi.

2§. Mantiqiy va lingvistik presuppozitsiya

Presuppozitsiya tushunchasi kontekst kabi bir nechta iboralarni o'z ichiga oladi. Presuppozitsiya so'z va uning tuzilishi hamda bayon etilayotgan aniq gapning ma'nosini to'ldirib keladi.

Tilshunoslikda presuppozitsiya turlicha talqin etiladi. Presuppozitsiya tushunchasi ostida qondirilishi lozim bo'lgan bir nechta shartlar yig'indisi tushuniladiki, unga asosan quyidagilar kiradi:

- a) berilgan izohning tuzilishini o'rinli qo'llay bilish;
- b) berilgan izohdan maqsadli yo'lda foydalana bilish;
- c) berilgan izoh o'zining to'g'ri ma'nosida tushunilishi lozimligi.

V. Z. Demyankov chet el mualliflari tajribalariga asoslanib quyidagilarni taklif sifatida kiritdi:

- presuppozitsiya tipologiyasi;
- mantiqiy presuppozitsiya;
- pragmatik presuppozitsiya;
- semantik presuppozitsiya.

²⁷ Стросон П. Ф. О референции. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 13: Логика и лингвистика. – М.: Прогресс, 1982ю – С . 419-438

Kognitiv-pragmatik rejaga asosan presuppozitsiyani vaziyatli (situativ) va tilshunoslikka oid (lingvistik) holatlarga bo'lish mumkin:

- keng (umumiy) presuppozitsiya- insonlarning tevarak- atrof haqida umumiy bilimi;
- tor (shaxsiy) presuppozitsiya, so'zlovchi gapirayotgan aniq bir vaziyatga tegishli bo'lgan bilimlar;
- lingvistik presuppozitsiya, ushbu til o'z ichiga oladigan bilimlar.

E. V. Paducheva, pragmatik va semantik presuppozitsiyani ajratgach, yana quyidagilarga ajratadi:

- faktli;
- kategoriyaviy;
- ekzistentsial

N. D. Artenova bir qator o'zining ishlarida presuppozitsiyaning turli xil ko'rinishlarini ko'rsatib o'tadi:

- ekzistensial;
- pragmatik;
- sintagmatik (biror so'z yoki gapning boshqa so'z yoki gap bilan mosligi);
- konnotativ (gap va so'zlarning ikkinchi darajali ma'nosi bilan bog'liqligi);
- kommunikativ (nutq eshituvchi darajasi to'g'risida bildirilgan so'zlovchining taassuroti) mantiqiylik.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari, presuppozitsiyaning bir nechta nazariyalari va klassifikatsiyalari mavjud.

Mantiqshunoslar uchun presuppozitsiya tushunchasiga quyidagilar xarakterlidir:

- gapning haqiqiy ma'nosini belgilashi;
- turli xil mantiqiy munosabatlar va gaplar o'rtasidagi farqni belgilashi;
- gapning logiko- semantik tahlilida pragmatik faktorning ko'rib chiqilishi.

Presuppozitsiya tushunchasi mantiq ilmidagi ham, tilshunoslikda ham qo'llanilayotgan bo'lsada, ularning o'rtasida muayyan farqli jihatlar mavjud. Buni A. Nurmonov quyidagicha sharhlaydi: „...tilshunoslikda logik presuppozitsiya bilan lingvistik presuppozitsiyani aralashtirish hollari uchraydi. Biz faqat ma'lum tashqi signallar (grammatik ko'rsatkichlar) orqali anglashilgan presuppozitsiyani lingvistik presuppozitsiya hisoblash tarafdorimiz”.²⁸ Shu nuqtai nazardan, logik va lingvistik presuppozitsiyani farqlashimiz zarur. Zero, logik presuppozitsiya sof lingvistik hodisa bilan, ya'ni lingvistik birliklar, ularning ma'noviy va vazifaviy xususiyat-u imkoniyatlari bilan bog'liq tagma'no. *Salim o'tin yordi* gapida anglashiladigan o'tin bilan aloqador: „*O'tin bor edi*”, „*o'tin yorilmagan edi*”, „*O'tin yorish zarurati bor edi*”, „*O'tin yorib bo'lmas darajada qattiq emas edi*” ..., Salim bilan aloqador: „*Salim sog'lom va kuch-quvvatli*”, „*Salim o'tin yorishga qodir*”, „*Boshqa kishi emas, Salim o'tin yordi*”, ... yoki yormoq harakati bilan aloqador: *kesmadi balki yordi, maydalamadi balki yordi...*kabi deyarli cheksiz miqdor va ko'rinishdagi tagma'nolar mantiqiy (logik, situativ) dir. Ulardan har biri o'zida xos ma'lum bir kontekstda ahamiyat kashf etishi mumkin, xolos. Masalan, suhbat (diskurs)da Salimning zaif va xastaligi, zo'rg'a oyog'ini sudrab yurganligi haqida bahs borganda „Salim o'tin yordi o'zim ko'rdim” gapi „Salim sog'lom va kuch-quvvatli” tagma'nosini ifodalaydi. Ammo *ham*, *faqat*, *-gina* kabi yuklamalarida mujassamlashgan tagma'no (presuppozitsiya) sof lingvistik hodisa. Masalan, *ham* yuklamasining lisoniy qiymatida, ma'nosida „*boshqalar ham, boshqalar qatori*” (qo'shish tagma'nosi) yoki *faqat* yuklamasida „*boshqalar emas boshqalardan farqli o'laroq*” (ajratish tagma'nosi) ma'nolariga ishora mujassamlashgan. Mana shunday tagma'nolarni atroflicha o'rganish va tavsiflash muhim lingvistik va didaktik (ta'limiy) ahamiyatga ega. Binobarin, tilimizning jozibasi, jilosi nozik ma'no javohirlari mana shu daqiq tagma'nolar orqali voqelanadi. Quyidagi matn (gap) larni qiyoslaylik:

²⁸ A. Nurmonov. Ko'makchili konstruktsiyalar presuppozitsiyasi // O'zbek tili va adabiyoti. 1986, 6- son, 43- bet

1. Butun yo'l davomida yigit hirgoyi qilib bordi.
2. Yo'l davomida yigit hirgoyi qilib bordi.
3. Yo'lda yigit hirgoyi qilib bordi.
4. Yo'l bo'yi yigit hirgoyi qilib bordi.
5. Yo'lda yigit uzluksiz hirgoyi qilib bordi.

E'tibor qaratadigan bo'lsak, qaysi matn (gap) da fasohat kuchli? Albatta, to'rtinchi gapda.

Shu bitta gap qolgan to'rt gap bilan ifodalangan ma'nolarning barchasini qamrab olgan. Bu gapda qo'llanilgan *bo'yi* ko'makchisi birinchi gapda tortta vosita (*butun, davom* so'zlari, *-i* egalik va *-da* kelishik qo'shimchalari) bilan berilgan ma'noni juda go'zal va o'ta ta'sirchan, yuksak tejamkorlik bilan o'z lisoniy ma'nosi mujassamlashgan davomiylik, uzluksizlik tagma'nolari asosida bera oladi. Bundan tashqari, unga beshinchi gapda ta'kidlangan *uzluksiz* ma'nosi ham begona emas. Demak, *bo'yi* ko'makchisi o'zining tagma'nolari (presuppozitiv ishoralari, presuppozitsiyalari) bilan yuqorida keltirilgan holatlardagina „bir o'q bilan besh quyonni“ bermalol urgan.

Lingvistik presuppozitsiya mantiqiy presuppozitsiyadan farqli ravishda ma'lum ifodalanish shakliga – moddiy vositasiga, tashqi signallarga ega. Masalan, o'zbek tilidagi *Karim ham keldi* jumlasida yana boshqa kimdir keldi presuppozitsiyasi anglashiladi. Bu presuppozitsiyaning moddiy substrati – tashqi signali „ham“ yuklamasidir.

Chunki mazkur yuklama presuppozitsiya uchun yo'l ochadi. Shuningdek, kelish harakatining yuzaga chiqish vositasi (piyoda, mashinada, otda va boshqalar) ham presuppozitsiyasi orqali ma'lum bo'ladi.

Ozbek tilida presuppozitsiyaning moddiy substrati sifatida xilma-xil vositalar ishtirok etishi mumkin: 1) leksik vositalarning fakultativ ma'no komponentlari; 2) *hatto, faqat, yolg'iz, ham, tag'in, yana* yuklamalari; 3) *bo'lsa, esa* bog'lovchi

vositalari; 4) *tashqari, boshqa, o'zga* (sendan tashqari Karim ham keldi), *bilan, birga* (Chiroyli bo'lish bilan birga aqlli ham edi), *o'rniga* (o'qish o'rniga o'ynadi) ko'makchilari va hokazo.

Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko'nikmalari bilan bog'liq tarzda aks ettirgan pragmatik xususiyati bo'lib, mahiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslanuvchi ko'rinishini anglatadi. Bunday tashqi ishora tilda moddiy ifodachisiga ega bo'lganda presuppozitsiya lingvistik xususiyat kasb etadi. Bu jihatdan qaraganda, lingvistik presuppozitsiyaning gapda lisoniy vositalar ishorasi asosida yashirin ifodalanuvchi axborot tarzida baholanishi asoslidir.

Keyingi yillarda til sathi birliklarining pragmatik xususiyatlari yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida presuppozitsiya hodisasini o'rganishga e'tibor yanada kuchaydi. Bu hodisa tilshunoslikda „hukmning tabiiy asosi“²⁹, „so'zlovchining umumiy bilish fondi“, „ularning oldindan kelishuvi“³⁰, „oldindan ma'lum bilimlar jami“³¹ sifatida talqin etilmoqda.

Presuppozitsiya gapning yashirin ifodalanuvchi semantik uzvi hisoblanadi. U gapning ichki strukturasi orqali anglashiladi va nutq egalarining til ko'nikmalari, ularning nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari asosida tushunarli bo'ladi. Presuppozitsiyaning yashirin ifodalanish xususiyati uning gap tashqi strukturasi orqali ochiq ifodalanuvchi propozitsiya bilan qorishib ketmasligiga imkoniyat yaratadi.

Ayrim tilshunoslar presuppozitsiyaning eksplitsit ifodasi mavjud, degan fikrdalar. Tilshunos G. D. Arxipkinaning fikricha, gap strukturasi va uning shakliga butunlay muvofiq kelmaydigan presuppozitsiyaning o'zi yo'q. Presuppozitsiya

²⁹ Семиотика ва информатика. Вып. 8. М., 1977. С. 40-46.

³⁰ Н. Д. Арутюнова. Понятие presupпозиции в лингвистике // Известие АН СССР. Серия лит. и яз. 1973. Т. 32. Вып. № 1. С. 86

³¹ В. Гак. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. М., 1981. С. 14

gapning tashqi strukturasida implitsit va eksplitsit ifodasiga ega bo'ladi.³² Tilshunos I. V. Samoylova ham bu fikrni qo'llab quvvatlaydi. Uning ta'kidlashicha, nutqiy gapda presuppozitsiya nafaqat implitsit tarzida ifodalanadi, balki propozitsiyaning shakliga ishora qilishda hamda gap shakllanishida qo'shimcha semantik ishoralarni qo'llashda eksplitsit ifodasiga ham ega bo'ladi.³³ Tilshunos Xoang Fe esa presuppozitsiyani ifodaning implitsit mazmuniga tenglashtirishni inkor etadi.³⁴ Ya'ni tilshunoslar bu masalada har doim ham hamfikir emaslar.

Presuppozitsiya barcha tillarda kuzatiluvchi hodisadir. U har bir tilde shu tilning ichki imkoniyati, ifoda vositalarining o'ziga xos xususiyati asosidabelgilanadi. Bu holat presuppozitsiyaning ifodalanishi masalasiga turli yondashuvni yuzaga keltirishi tabiiy. Biroq tan olish joizki, presuppozitsiya gapning tashqi strukturasida moddiy ko'rinishini to'liq namoyon qilmaydi. Ammo uning tashqi signallari – ishora vositalari, tabiiyki, sintaktik strukturadan o'rin oladi. Bu jihatdan qaraganda, presuppozitsiyaning eksplitsit ifodasi xususida fikr yuritish o'rinli bo'ladi. Bu til birligi presuppozitsiyaga ishora qilsada, uning sintaktik strukturasini qamrab ololmaydi.

Yana bir jihat shundaki, presuppozitsiya nutqda turli darajadagi sintaktik qurilmalar orqali shakllanadi. O'z navbatida, bunday qurilma propozitsiyani ham aks ettiradi. Ammo presuppozitsiya orqali anglashiluvchi axborot propozitsiyaga zid tarzda sintaktik qurilma tashqi strukturasiga to'la mos kelmaydi. Bu holat uning yashirin ifodalanishi xususida fikr yuritishga asos bo'ladi.

Bugungi kunda tilshunoslikda presuppozitsiya xususida ma'lumotlar to'plangan. Presuppozitsiya semantik, pragmatik, keng, tor, lingvistik

³² Г. Д. Архипкина. К вопросу об использовании пресуппозиций в семасиологическом анализе // Грамматика и семантика предложения: Лингвистические исследования. М., 1984. С. 4-5.

³³ И. В. Самойлова. Смысл высказывания как совокупность пропозиционального пресуппозиционального значений / Формальный и содержательный аспекты предложения в германских языках: межвуз. сб. науч. Тр. Горкий. 1988. С. 49.

³⁴ Фе Хоанг. Семантика высказывания // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. ХУ1. М., 1985. С. 310

presuppozitsiya, ekzistensial, sintagmatik, konnotativ, kommunikativ, logik, leksik, leksik bo'lmagan, noekzistensial, yakka, umumiy, universal kabi turlarga ham bo'lib o'rganilgani haqida yuqorida ta'kidlab o'tildi. Bu hodisani o'rganish bilan amalga oshirilgan ishlarning tahlili asosida presuppozitsiya xos quyidagi eng umumiy belgilarni ajratish mumkin bo'ladi:

1. Presuppozitsiyada nutq ishtirokchilariga oldindan ma'lum voqelik ifodasi o'z aksini topadi. Masalan: . . . *chang bosgan eski do'ppidan boshqa hech nima yo'q* (Oybek).

Ushbu gapdan „*Chang bosgan eski do'ppi bor*” presuppozitsiyasi anglashiladi. Bu axborot nutq ishtirokchilariga oldindan ma'lum bo'lgan voqelikni aks ettiradi.

2. Presuppozitsiya aksariyat hollarda nutqiy tejamlilik oqibatida namoyon bo'ladi: *Erkaklardan ko'ra xotinlar ko'proq yig'ildi* (O'. Hoshimov).

Ushbu gapda „*Erkaklar ko'p yig'ilmadi*”, „*Xotinlar ko'proq yig'ildi*” axborotlari ifodalangan. Presuppozitsiya hisobiga murakkab mazmun sodda shaklda ifoda etilib, nutqiy tejamlilikka erishilgan.

3. Presuppozitsiya gapning tashqi strukturasi bevosita aks etmaydi, uning ichki strukturasi orqali yashirin anglashiladi. Masalan: *Ayolimiz bilan loyimiz bir yerdan olingan!* (T. Murod).

Ushbu gapdan „*Ayolimizning loyi bir yerdan olingan!*”, „*Loyim bir yerdan olingan!*” axborotlari anglashiladi. Birinchi axborot presuppozitsiya orqali ifodalangan bo'lib, gap tashqi strukturasi ochiq aks etmagan.

4. Presuppozitsiya asosiy hollarda gapning tashqi strukturasi mos holatda ochiq ifodalangan propozitsiyaga semantik jihatdan zidlanadi: *Anavi Madiyev degichi kerosindan boshqa narsani ichadi* (T. Murod).

Ushbu gapda „*Anavi Madiyev degichi kerosin ichmaydi*” presuppozitsiyasi ifodalangan. Bu axborot gap kesimi orqali ifodalangan „*Anavi Madiyev degichi boshqa narsani ichadi*” axborotiga semantik jihatdan zid.

5. Presuppozitsiya gapda eksplitsit ifodasini topgan tashqi signallariga – ishora vositalariga ega bo'ladi. Masalan : *G'azab bilan gazetani. . . yoqdi!* (T. Murod).

Ushbu gapda „*G'azablandi*” presuppozitsiyasi ifodalangan bo'lib, unga *bilan* ko'makchisi ishora qilgan.

Misollar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, lingvistik presuppozitsiya so'zlovchi va tinglovchilarning umumiy bilimi, til ko'nikmasi asosida shakllanuvchi til hodisasi bo'lib, gapda yashirin ifodasiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, lingvistik presuppozitsiyani o'rganishda asosiy e'tibor uni yuzaga chiqaruvchi til vositalariga qaratiladi. Har bir tilning lingvistik lingvistik presuppozitsiyaga ishora qiluvchi o'z tashqi signallari mavjud.

O'zbek tilida ham sodda sintaktik shakl orqali murakkab mazmunni ifodalashda yordamga keluvchi presuppozitsiya signallari xilma- xil. Bunday lisoniy vositalar muayyan nutq vaziyatida presuppozitsiyaga ishora qilib, sodda gapning mazmuniy tuzilishini murakkablashtiradi. Har bir lisoniy vosita o'ziga xos shakliyl tuzilishdagi gaplarni hosil qilishda ishtirok etsada, yashirin tarzda qo'shimcha axborotni ifodalashi jihatidan umumiylikka ega bo'ladi. Bu lisoniy vositalarga xos yana bir umumiy belgi shundaki, ular ko'pincha zidlik, qiyos munosabatlarini hosil qiladi.

Presuppozitsiyaning shakllanishida har bir vositaning lisoniy tabiati muhim o'rin tutadi. Masalan, *qaraganda* ko'makchisi *qiyos*, *solishtirish* grammatik ma'nosini hosil qilganda gap kesimi bilan bog'liq holatda shakllanuvchi presuppozitsiyalarga ishora qiladi. Masalan, „. . . *Bobosini avvalgiga qaraganda ham ko'proq yaxshi ko'radi* (T. Murod) gapida presuppozitsiya orqali „*Bobosini avval ham yaxshi ko'rardi*” axborot ifodalangan. Bu axborot gap mazmuniy tuzilishining yashirin uzvi sifatida yuzaga chiqadi.

Lingvistik presuppozitsiya asosan tilda amal qiluvchi tejash tamoyili asosida yuzaga chiqadi. Tejamlilik o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, muayyan til birligining vazifasi boshqa bir birlikka yuklatiladi. Nutqda sintaktik qurilma

tarkibidan tushirib qoldirilgan gap uzvining shu qurilmadagi boshqa birlik zimmasiga yuklatish asosida shakily ixchamlikka erishish lingvistik presuppozitsiya yordamida amalga oshiriladi. Lingvistik presuppozitsiya hisobiga muayyan mazmunni ifodalashga xoslanmagan sintaktik shakl uning ifodachisiga – *tashqi signaliga* aylanadi. Biroq lingvistik presuppozitsiya orqali ifodalangan propositsiya gapda bevosita aks etmaydi, balki lkisoniy birlikning ishorasi asosida yashirin tarzda ifodalanadi hamda nutq egalari tomonidan hech qanday qiyinchiliksiz to'g'ri tushuniladi.

Olmon tilshunosi K.V. Hempferning³⁵ gap ma'nosida kontekstdan tashqari, hech qanday nutqiy vaziyat bilan bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan xulosaviy hukmni semantik presuppozitsiya sifatida qarash lozimligi haqidagi fikri boshqalar tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi (V.V.Bogdanov, V.A.Zvegintsev, Y.V. Paducheva, M. L. Makarov, N.Mahmudov, A. Nurmonov va boshqalar). Darhaqiqat, presuppozitsiyaning lisoniy birlik manosi bilan bog'liqligi haqida oldingi sahifalarda gapirildi. Gapning semantik tuzilishi presuppozitsion poydevorga ega ekanligini hech kim inkor etmaydi. Shuning uchun ham „*Abbos menga kitobni berdi*” gapi „*Abbos degan yigitning borligi*” (ekzistensial presuppozitsiya) va „*uning menga kitobni berganligi*” (faktiv presuppozitsiya) yoki bermaganligi (nofaktiv presuppozitsiya) haqidagi xulosaviy hukmlarning yuzaga kelishi tabiiydir. Bular oddiy mantiqiy xulosalardir.

Ammo lison faqat turg'un, yagona bir qolipga solingan, doimiy mazmunga ega bo'lgan birliklar to'plami emasligini yaxshi bilamiz. Lisoniy faoliyatda shunday holatlar yuzaga keladiki, ularni bevosita, oldindan berilgan yagona bir andozaga binoan tavsiflab bo'lmaydi. Xususan, „*Mening onam mendan yoshroq*” nutqiy birligini olaylik. Har qanday kishidan so'rasang, uni ma'no jihatdan g'alati

³⁵ Hempfer K.W. Ansatze zur Definition und Typologisierung von Presuppositionen. In: Akten der 2. Salzburger Fruhlingstagung fur Linguistik. Tubingen, 1977. – S. 19-34

tuyulishini, mantiqiy normadan chekinish ekamligini aytadi. Bunday baho bilan gapning semantik presuppozitsiyasini aniqlab bo'lmaydi, faqatgina u „*X U ga nisbatan yosh*” qolipiga tushadi:

- a) *Barno Shaloladan yosh*;
- b) *Mening opam Barnodan yosh*;
- c) *Barno mendan yosh*;
- d) *Mening onam mendan yosh*.

Albatta, onaning o'z farzandidan yosh bo'lishi mumkin emas. Mazmunliy va presuppozitsion g'ayritabiiylikni yo'qotish uchun gapning maxsus (alohida turdagi) qo'llanish matniga murojaat qilishga majburmiz. Nutqiy qurilmalarning bunday qo'llanishi bilan qiziqqan Jon Layonz *My mother is younger than I am* - „*Mening onam mendan yosh*” ko'rinishidagi gaplarning mazmundorligini ta'minlovchi yagona vosita nutq vaziyati, kontekst ekanligini alohida ta'kidlagan edi.³⁶ Tibbiy ko'rsatmalarini onasining tibbiy varaqasi bilan qiyoslayotgan odamning hayratli gaplari: „*Yo tavba! Mening onam mendan yosh! Albatta, gap yoshda emas, lekin u haqiqatdan ham mendan yosh, tibbiy ko'rsatgichlarga qarang!*”

Diqqat qiling: so'zlayotgan shaxs aytayotgan gapning ma'nosiz tuyulishini sezib, izoh bermoqda, ya'ni onasining undan yosh ko'rinishi tibbiy ko'rsatgichlarga bog'liq ekanligini uqtirmoqda. Demak, presuppozitsiya va har qanday ma'no ifodasi bilan bog'liq bo'lgan boshqa hodisalarning voqelanishi, lisoniy tus olishi uchun ma'lum miqdorda nutqiy vaziyat konteksti talab qilinadi.

Semantik va pragmatik presuppozitsiyani farqlash, ularni yagona bir lisoniy-mantiqiy faoliyatning ikki mustaqil qismlariga ajratishga sabab bo'lmoqda. Holbuki, lisoniy va mantiqiy harakatlar yagona bir faoliyat doirasida ijro etiladigan, biri ikkinchisini taqazo etuvchi hodisalardir. Semantikani, lisoniy birliklar ma'nosini ushbu lisondan foydalanuvchining dunyo haqidagi bilimidan holi holda qarash

³⁶ Lyons J. *Semantics*, vol. 1 and 2. –Cambridge: Cambridge University Press, 1977. -419.

xatodir. Doimiy hamkorlikda ijod qilishayotgan amerikalik semasiologlar J. Kats va J. Fodor hamda ularning shogirdlari semantikani kontekstdan holi, soʻz va gaplarning qandaydir doimiy, turgʻun maʼnosi bilan shugʻullanuvchi soha degan gʻoyani singdirishga qilgan harakatlari bunday „atomistik” yondashuvning salbiy natija bilan tugashini koʻrsatdi. Ajratuvchilik, cheksiz boʻlaklarga boʻlib tashlash amali metodologik jihatdan har doim ham kutilmagan samaraga olib kelavermasligi ilmiy tafakkurda oʻz tasdigʻini topgan. Jahon ruhshunosligining eng katta „vakil”laridan biri boʻlgan L.S. Vigotskiy 1934-yilda nashr ettirgan „Tafakkur va nutq” nomli risolasida nutqning inson psixologik-mantiqiy faoliyati bilan bogʻliq tomanlarini oʻrganayotib, psixologik faoliyatni elementlarga emas, balki birliklarga ajratish metodidan foydalanish lozimligini uqtiradi.

Olimning tavsificha, „birlik, tahlilning (ilmiy-mantiqiy tahlilning-Sh.S.) shunday hosilasiki, u elementlardan farqli ravishda, yaxlitga xos boʻlgan barcha xususiyatlarga egadir hamda bu xususiyatlar qayta boʻlinmaydigan birlikning „tirik” tarkibini tashkil qiladi”

„Yaxlit tarkibidagi birliklar unga (yaxlitga) xos xususiyatlarga toʻliq ega boʻlishiga qay darajada ishonishni bilmayman, lekin ruhshunos taklif qilgan metod lisoniy tahlil uchun ham muhim ekanligini taʼkidlamoqchiman³⁷”

Umuman olganda, presuppozitsiyaning semantikaga oid boʻlishiga, uning matndan ajralgan holda mavjud boʻlishiga gumonim yoʻq emas. Bu gumon tasdigʻini quyidagi gaplar tahlilida koʻrish mumkin:

- a) Muallif ushbu risolani tugatmasdan oldin uylandi.
- b) Muallif ushbu risolani tugatmasdan oldin vafot etdi.
- c) Muallif ushbu risolani tugatdi.

Keltirilgan gaplar qiyosidan koʻrinadi, „Muallif risolani tugatdi” presuppozitsiya xulosasi faqatgina (a) ga mos keladi. Olam haqidagi bilimimiz esa

³⁷Sh. Safarov. Pragmalingvistika.-Toshkent, 2008. 119-bet

ushbu presuppozitsiyaning (b) turidagi gaplarga mos emasligini isbotlaydi, chunki prasuppozitsiyada ma'lum („ushbu”) risola tugatilgani haqidagi xulosa mavjud. Demak, risola muallif vafotidan oldin tugagan bo'lishi shart. Ma'lumki, semantik tahlilda ma'no lisoniy birliklarning doimiy, invariant mundarijasi sifatida ajratiladi. Presuppozitsiya esa invariantlik xususiyatiga ega emas, u doimiy mundarijaviy xulosa bo'la olmaydi, uning voqealanishi matnda, muloqot kontekstida kechadi. Shu sababli bo'lsa kerakki, keying yillarda olimlar presuppozitsiyani asosan pragmatik hodisa sifatida talqin qilish yo'lidan borishmoqda.

Pragmatik presuppozitsiya hodisasi talqinida ikki yo'nalish mavjud: ularning birinchisida nutqiy harakatning jo'yaliligi va samaradorligi asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Ijro etilayotgan nutqiy faoliyat va qo'llanilayotgan lisoniy tuzilmalar jo'yali, o'rinli bo'lgan taqdirdagina muloqot natijali ko'chishini bilamiz³⁸. Shuning uchun ham nutqiy jo'yalilik va samaradorlik shartlaripragmatik pressuppozitsiyaning asosiy tamoyiliga aylanadi.

Ikkinchi yo'nalishdagi talqinda pragmatik presuppozitsiya muloqot ishtirokchilalining axborot mavzusi, predmeti haqidagi umumiy bilimi, ishonchi sifatida qaraladi. Bunda kommunikativ faoliyatning ichki va tashqi shart-sharoitlarining kognitiv idroki asosiy o'rinni egallaydi. Bu ko'rinishdagi talqinda pragmatik presuppozitsiya bevosita matn tarkibi, uning qismlarining o'zaro munosabati bilan bog'liq ekanligi ayon bo'ladi.

Shahriyor Safarovning fikricha, eslatilgan ikki yo'nalishdagi talqinni hech tortinmasdan umumiy maxrajga keltirish mumkin, zero, jo'yalilik va samaralilik shartlari matnda faollashadigan propozitsiyani bevosita kontekst, muloqot vaziyati bilan bog'laydi. Muloqot birligining jo'yali, o'rinli ekanligini faqatgina kontekstda, uning bo'laklari tarkibida aniqlash imkoni bor.

³⁸ Mahmudov N. Nutqning jo'yaliligi // O'zbek tili va adabiyoti, 2007. 3-son. -13-17-bet.

S. Levinson keltirgan ta'rifni olaylik: „ A nutqiy birligi (gap) B propozitsiyani pragmatik jihatdan nazarda tutishi uchun A jo'yali bo'lishi va B ning muloqot ishtirokchilari uchun umumiy ma'lumligi sharti bajarilishi lozim” . Axir bu R. S. Stolneyker bergan ta'rifning aynan muqobili emasmikan: propozitsiyaning pragmatic ma'noda presuppozitsiya bo'lishi so'zlovchi uning (hukmning- Sh. S.) haqqoniy ekanligini o'z-o'zidan ma'lum deb hisoblashi bilan bog'liq...balki presuppozitsiyani nutqiy faoliyatda namoyon bo'ladigan murakkab moyilliklar, moslashuvchanlik sifatida qaragan ma'quldir” .³⁹ Ikkala ta'rifda ham urg'u muloqot vaziyati, matniga berilmoqda. Muloqot samarali bo'lishi uchun uning ishtirokchilari ma'lum darajada umumiy kognitiv zahiraga ega bo'lishlari lozim, ularning propozitsiyaga oid bilimlarida umumiylik bo'lmasa, anglashilmovchilik yuzaga kelishi muqarrar.

Pragmatik presuppozitsiyaning matnga xosligi, kontekstga oidligini e'tirof etgan holda lisoniy birliklarning ko'p ma'noliligi , ularning turli matn muhitlarida (nutqiy vaziyatlarda) turlicha mazmun ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishini ham unutmaslik lozim. Xuddi shuningdek, nutqiy tuzilmalar ham turli mazmundagi umumiy bilim (axborot) ni ifodalash qudratidan mahrum emasdir. Shuning uchun ham ayrim tilshunoslarning nutqiy birlik sifatida qaralayotgan gap imkoniyatidagi presuppozitsiyalar to'plamiga ega va kontekstda namoyon bo'layotgani esa faollashgan presuppozitsiyadir, degan fikriga qo'shilmoq kerak. Bu holda konteks muloqot ishtirokchilari uchun ma'lum bo'lgan imkoniyatlar to'plamidan faqatgina birini tanlab olish imkonini va bu propozitsiya barcha uchun umumiy, mazmuniy qarama-qarshilikka yo'l qo'ymaydigan axborotni ifodalashi lozim. Masalan, „ *Fransiya qiroli Versalda yashamaydi*” gapi so'zlovchi va tinglovchi uchun umumiy bo'lgan „*Fransiyada qiroli yo'q*” presuppozitsiya bilimini aks ettirishi kutiladi. Ammo bunday presuppozitsiyaga ega bo'lish uchun suhbatdoshlar ikkalasi ham

³⁹ Столнейкер Р. С. Прагматика. В кн.: Новое в зарубежной лингвистикею –Вып. 13, Логика и лингвистика. М.: Прогресс, 1985. С. 427

Fransiya siyosiy tizimi bilan tanish bo'lmoqlari kerak, aks holda kulguli holat yuzaga kelishi hech gap emas. So'z o'yini bilan bog'liq hazil va yumorli matnlar ko'pincha xuddi shu holatlarga asoslanadi.

Pragmatik presuppozitsiya hodisasi lisoniy muloqotning ramziy, marosimiy, an'anaga aylanadigan ramziy tomonlari bilan bog'liqdir. Masalan, „*hazrat*“, „*hazrati oliylari*“ iboralarining qo'llanilishi bajarilayotgan muloqot faoliyatining rasmiyligi presuppozitsiyasidan darak beradi. Bunda muloqot adresati xuddi shu turdagi murojaatni talab qiluvchi lavozim, daraja sohibi bo'lmog'i darkor.

II BOB. PRAGMATIKA VA YORDAMCHI SO'ZLAR

1§. Ko'makchilarda pressuppozitsion xususiyatlar

Pragmatikani o'zbek tilshunosligidagi ahvoli, uning lingvistik sathning boshqa sohalari bilan aloqasi borasida ko'pgina tilshunos olimlarimizning fikrlarini yuqorida aytib o'tdik.

Bu soha bilan maxsus shug'ullangan olim Sh. Safarovning bu masalaga bag'ishlangan maxsus monografiyasida jahonning pragmatik tadqiqotlar bilan shug'ullangan ko'plab tilshunoslarning qarashlari tahlil qilingan. Olim pragmalingsvistik tadqiqotlarni ikkiga: tor va keng yondashuvlarga ajratib, bu masalagaoid yoki unga bo'g'liq qarashlarni keng va chuqur mushohada asosida tahlil qilib, bir-birini inkor qilayotgan yoki biri ikkinchisiga „soya“ tashlayotgan ta'riflarni bir umumiy g'oya atrofida birlashtirib, pragmalingsvistik tadqiq metodologiyasining dialektik asosi yoki tayanch nuqtasi vazifasini faoliyat tamoyili yoki umuman faoliyat falsafasi o'tashi lozimligini uqtiradi va pragmalingsvistikaga shunday ta'rif beradi: „

pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirikchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo'sindagi tahlili ularning qo'llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatida qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmlingvistik yondashuvning poydevoridir".⁴⁰ Darhaqiqat, yordamchi so'zlarning (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama) semantikasidagi asosiy semani „vazifa“ belgisi tashkil etadi. Ular lug'aviy ma'no anglatmasdan nutqda voqelangan vaqtda, kommunikatsiya jarayonida mant bilan bog'liq rang- barang xususiy ma'nolarni voqelantirish vazifasini bajaradi. Ana shu nuqtai nazardan, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan yordamchi so'zlarning muhim tomonlarini yoritishda lingvopragmatik yondashuvning ham alohida ahamiyati xususida to'ztaalamiz.

Nutqiy akt, predikativ bo'lmagan so'zlar, kontekst, nutqiy vaziyat, so'zlovchi shaxsi kabi tushunchalar lingvistik pragmatikaning markaziy tushunchalaridir. Bu tushuncha matn tarkibidagi yordamchi so'zlar pragmatikasi tadqiqi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida yordamchi so'zlar gap yoki jumla tarkibidagi so'zlarni yoki sodda gaplarni hamda ular orasidagi turli xil munosabatlarni ifodalovchi yoki ularga qo'shimcha ma'no beruvchi grammatik vositalar hisoblansada, matn talabiga ko'ra xilma-xil pragmatik, hosila ma'nolari ham kasb etishi mumkin.

Pragmatik tilshunoslik tadqiqotchilari prof. A. Nurmonov va M. Hakimov gap semantikasining mazmuniy yo'nalishi bilan bog'liq muammolarni ko'rsatish jarayonida mantiqiy semantikaning yirik vakili B. Rassel so'zlarni indikativ va

⁴⁰ Sh. Safarov. Pragmlingvistika, - T., O'zME nashriyoti, 2008- yil, 70- bet

indikativ bo'lmagan so'zlarga ajratishini aytishadi. Ya'ni obyektiv borliqdagi ma'lum narsa-hodisalarni, belgi-xususiyatlarni, harakat- hodisalarni nomlash xususiyatiga ega bo'lgan so'zlarni indikativ „ishora qiluvchi” so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlarni esa indikativ bo'lmagan so'zlar deb hisoblashadi va gap semantikasi bilan shug'ullanuvchi tilshunoslar gap tarkibida ana shunday indikativ bo'lmagan so'zlar kelganda ancha qiyinchilikka duch kelishlarini aytishadi.⁴¹

Bu gap semantikasi bilan bog'liq qanday qiyinchilik ekanligini olimklar shunday izohlashadi: „gap tarkibidagi deskriptiv so'zlarni (induktiv so'zlatrni) konkret nutq vaziyati bilan bog'lamasa ham, qaysi denotativ (atash) ma'noda ekanligini, obyektiv borliqdagi nimani nomlab kelayotganligini aniqlash imkoniyati bo'lsa, deskriptiv bo'lmagan so'zlarni bunday aniqlash mumkin emas. Bunday so'zlar obyektiv narsa va hodisalar, belgi va xususiyatlar, harakat va holatlarni to'g'ridan to'g'ri nomlamagani tufayli, ular muayyan vaziyat bilan bog'lanmasa, nimaga ishora qilayotgani noma'lumligicha qolishi ma'lum bo'ldi. Bu shuni ko'rsatadiki, gap semantikasini shu gap tarkibida qo'llanilayotgan so'zlarning faqat obyektiv borliqqa munosabatini aniqlashb bilangina to'la izohlash mumkin emas ekan. Bunga gapning nutq jaroyoniga, nutq vaziyatiga ega bo'lgan munosabatini aniqlashni qo'shish zaruriyati ham mavjud. Ana shunday amaliy ehtiyoj bilan lingvistik semantika bag'ridan lingvistik pragmatika o'sib chiqdi”.⁴²

B. Rassel nazarda tutgan induktiv bo'lmagan so'zlar yoki A. Nurmonov va M. Hakimovlar aytgan deskriptiv bo'lmagan so'zlar sirasiga birinchi navbatda yordamchi so'zlar kiradi. Bu so'zlarning ma'no – mohiyati esa muayyan nutq vaziyatiga bog'liq holda ma'lum matn ichida ochiladi. Binobarin, so'zlovchining ichki niyati bilan bog'liq maqsadini ifodalashda yoki uning obyektiv borliqqa va o'z nutqiga

⁴¹ A. Nurmonov, M. Hakimov. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O'zbek tili va adabiyoti, 2001, 4-son, 55-bet

⁴² A. Nurmonov. M. Hakimov. Ko'rsatilgan asar, 55-bet


qo'shimcha munosabat bildirishiga yordamchi so'zlarning alohida ahamiya bor. Yordamchi so'zlarning so'zlovchi niyatini yuzaga chiqarish jarayonidagi xizmatlari lingvopragmatikaning morfopragmatik va sintaksopragmatik deb nomlanuvchi yo'nakishlarida o'rganiladi.

Ma'lumki, yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar) morfologik vositalar hisoblangani uchun ular morfopragmatikaning o'rganish obyekti hisonlansa, muayyan matniy jummalarni shakllantirishga yordam berishi yoki unga qo'shimcha ma'no berishi bilan sintaksopragmatikada han alohida o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, bu turkum so'zlar anglatgan relyatsion ma'no – pragmatizatsiyaning asosi sifatida baholanib, turli pragmatik munosabatlar ushbu so'zlarning ma'noviy bazalarida rivojlanadi.

Demak, lisoniy tabiatiga ko'ra morfopragmatikaga xos sanalsada, ularning to'g'ridan- to'g'ri nutq jarayonidaso'zlovchi illokutiv niyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi orqali sintaksopragmatikaga oid munosabatlarni yuzaga keltirishi ularning funksional xususiyatiga bog'lanadi. „Sintaksopragmatik talqin ham sintaktik elementlarning so'zlovchining o'zi ifoda etayotgan fikriga munosabati bilan belgilanadi. Jumladan, xabar mazmunida qo'shimcha axborot ko'rinishlari aniqlik, gumon, yashirin kabi pragmatik mazmunning sintaktik vositalar yordamida ifodalanishi sintaksopragmatik talqin deb yuritiladi. Masalan, maktabga ketdi bilan maktab tomon ketdi jumlasining mazmuni keskin farqlanadi”⁴³.

Darhaqiqat, bu jumladagi M. hakimov nazarda tutgan farqlanish nimada ko'rinadi? E'tibor qaratadigan bo'lsak, bu o'rinda maktab, ketdi birliklari o'z joyida, ularda farqlanish, asosiy differensiatsiya morfopragmatik birliklar –ga kelishik qo'shimchasi va tomon ko'makchisio'rtasida sodir bo'lmoqda. „Maktabga ketdi” – jumlasida aniq xabar bor, ikkilanish yo'q, tamom kimdir maktabga ketgan – xabar aniq. Ko'makchi bilan shakllangan jumlada esa quyidagi mazmunlar kuzatiladi:

⁴³ M. Hakimov. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: filol. fan. doktori. diss. avtoref. Toshkent, 2001. 27-bet



Umuman bu jumla kimnidir aniq maktabga ketgani xususida ma'lumot bera olmaydi, ya'ni xabar ikkilanish, tussimollikka asoslanadi. Ana shu ma'nolarga ko'ra jumla farqlanadi. Bu farqlanish esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, morfopragmatik birliklar zimmasiga tushsada, sintaksopragmatik jarayonni yuzaga keltiradi.

Umuman presuppozitsiya anglatuvchi vositalar tilimizda juda ko'p va rang-barangdir. Ishimizning tub maqsadi lingvistik presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalarning tadqiqi ekanligini hisobga olib, presuppozitsi ifodalashda juda aktiv qo'llaniladigan vositalardan ayrimlarini aytib o'tamiz.

Presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalarning semantik tahlili hozirgi davr tilshunosligining dolzarb mavzusi hisoblanadi. Uning uchun hozirgi kunda har bir so'z turkumlari, har bir kategoriyaning presuppozitsion tahlil etish kuchaydi. Til kategoriyalarini presuppozitsion tahlil etish kuchaydi. Til kategoriyalarini presuppozitsion tahlil etish tilshunoslikning yangi qirralarini ochib beradi.

Ularning shu kungacha ko'rinmay kelgan turli tomonlarini yana ham ochib beradi. Chunki, S. D. Kastnelson aytganiday: „Grammatikani kata qismi suv ostiga yashiringan muz tog'i bilan qiyoslash mumkin⁴⁴. Hali grammatikaning, ayniqsa, sintaksisning mazmuniy uzvlari „suv ostida yashirinib“ turibdi. Bu uzvlarni so'z, gap doirasidan chiqmaydigan ilmiy tadqiqot bilan ochib bo'lmaydi. Shuning uchun gapni turli qirralari bilan bog'liq bo'lgan, sistema sifatida talqin etish zarur. Sistema

⁴⁴ Канцельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. – Л., 1972. стр.83

elementlarining birortasi ham chetda qolmasligi kerak. Chunki gap ichida leksik ma'noga ega bo'lmagan so'zlar borki, ularning ma'nolarini pragmatic jihatdan tahlil etilmasa, mavhum bo'lib qoladi. Ana shunday so'zlarni pragmatikasini presuppozitsiyasiz tushunib bo'lmaydi.

Umuman, tildagi barcha kategoriyalarni presuppozitsion tahlil etish tilshunos uchun juda ko'p narsa beradi. Tilning „suv ostida yashiringan“ qismlarini ochishda qo'l keladi⁴⁵.

Presuppozitsiyaga yo'l ochuvchi lingvistik vositalar ichida yordamchi so'zlar alohida ahamiyatga ega. Ular gap ichida o'ziga xos mantiqiy ma'nolar anglatib, o'zi ishtirok etgan gapning mazmuniy tuzilishini murakkablashtiradi hamda turli ma'nodagi presuppozitsiyalarga ishora qiladi.

Tashqari ko'makchisi doimo chiqish kelishigidagi ot va otlashgan so'zlar bilan birga keladi va to'ldiruvchi funksiyasida qo'llanilib, o'zi alohida propozitsiyani ifodalaydi. Shuning uchun ham *–dan tashqari* konstruktsiyasi soda gap semantik tuzilishini murakkablashtiradi. Bu konstruktsiya qatnashgan sodda gap doimo ikki propozitsiyani ifodalaydi. Masalan, *Qishlog'imizda paxtachilikdan tashqari, boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlariga ham katta e'tibor berilmoqda* gapida ikki propozitsiya: 1) paxtachilikka kata e'tibor berilayotganligi; 2) boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlariga (makkajo'xori, sholi va boshqa narsalarga) e'tibor berilayotganligi mavjud. Ikkinchi propozitsiya birinchi propozitsiyaga qo'shilmoqda. Ikki propozitsiya o'rtasida konyunktiv munosabat mavjud. Birinchi propozitsiya to'ldiruvchi funksiyasidagi paxtachilikdan tashqari konstruktsiyasi orqali, ikkinchi propozitsiya esa gap konstuentlari ifodalangan. Konstuyent tarkibidagi ham yuklamasi konstuyentlar ifodalatotgan presuppozitsiyadan tashqari, yana boshqa p[ropozitsiyani ham mavjudligiga ishora qiladi. Solishtiring: *Qishlog'imizda boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlariga ham katta e'tibor berilmoqda* konstruktsiyasida ham ikki propozitsiya:

⁴⁵ U. Rahimov. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Filol. Fan. Nomz. ...dis. Avtoref. Samarqand, 1994.

1) boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlariga kata e'tibor berilayotganligi; 2) asosiy e'tibor berilayotgan yana boshqa qandaydir qishloq xo'jalik maxsulotining borligi. Ikkinchi propozitsiya presuppozitsiya orqali anglashiladi. Bu ham yuklamasining presuppozitsiyasidir. Demak, *Qishlog'imizda paxtachilikdan tashqari, boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlariga ham katta e'tibor berilmoqda* gapi bilan *qishlog'imizda qishloq xo'jalik maxsulotlariga ham katta e'tibor berilmoqda* gapi o'rtasida propozitiv tuzilish nuqtai nazaridan hech qanday farq yo'q. Ular o'rtasidagi farq faqat birinchi propozitsiyaning aniq – noaniqligidadir. Tarkibida propozitsiyani reallashtiruvchisi –*dan tashqari* konstrutsiyasi mavjud bo'lgan gapda birinchi propozitsiya aniq, ikkinchi tipdagi gapda esa noaniq bo'ladi. Solishtiring:

Birinchi gap propozitiv
strukturasi

Presup.: 1) *paxtachilikka katta
e'tibor berilmoqda*

Eksplitsit propozitsiya: 2) *Boshqa
qishloq xo'jalik maxsulotlariga
ham e'tibor berilmoqda.*

Ikkinchi gap propozitiv
strukturasi

Presup.: *Qandaydir qishloq
xo'jalik maxsulotlariga
e'tibor berilmoqda*

Eksplitsit propozitsiya: *Boshqa
qishloq xo'jalik maxsulotlariga
ham e'tibor berilmoqda.*

Demak, propozitsiyalar o'rtasida konyunktiv munosabat mavjud bo'lgan yuqoridagi tipdagi gaplar birinchi propozitsiyaning reallashtiruvchisa (signali) bo'lgan –*dan tashqari* konstrutsiyasining ifodalanish –ifodalanmasligiga ko'ra o'zaro aniqlik –noaniqlik differensial belgisi asosida oppozitsiyaga kirishadi: -*dan tashqari* konstrutsiyasi birinchi propozitsiyaning zid a'zosini doimo aniqlashtiradi.

Konyunktiv munosabat bildiruvchi sodda gaplarda zidlanayotgan a'zolar o'zaro teng ham, biri tur (qism), ikkinchisi jins (umum) tushunchasini ham ifodalashi mumkin. Masalan: 1) *Zokir Sultonov xushovoz xonanda bo'lishidan tashqari, nodir plastinkalar kolleksioneri hamdir* („Toshkent oqshomi”); 2) *Shlang ho'l bo'lishidan*

tashqari loy ham edi (P. Qodirov) 3) *Xalq namoyishi Tehrondan tashqari, boshqa shaharlarda ham avj olmoqda*.

Yuqoridagi gaplarda zidlanayotgan a'zolar: *xonanada – plastinka kolleksioneri* (1-gap), *ho'l – loy* (2-gap) bir jinsga (birinchi zid a'zolar kasb, ikkinchi zid a'zolar belgi jihatidan) oid bo'lgan, mazmuniy teng bo'lgan so'zlar bo'lsa; *Tehron – boshqa shaharlar* (3-gap) da esa qism va umum (ya'ni Tehron ham shahar) tushunchasini bildiruvchi so'zlardir.

Bunday tipdagi sodda gaplar propozitiv tuzilishining murakkab ekanligini va ikki propozitsiya o'rtasida konyunktiv munosabatning mavjudligini ifodalashda ham yuklamasi xizmat qiladi. Konyunktiv munosabat ifodalovchi ham yuklamasi xizmat qiladi. Konyunktiv munosabat ifodalovchi bunday konstruktsiyalarda predikatning tasdiq yoki inkor formasi ham ikki propozitsiyaga bir xil ta'sir qiladi. Har ikkalasi yo inkor, yoki tasdiq harakterga ega bo'ladi. Tarkibida *–dan tashqari* konstruktsiyasi qatnashgan gaplardan ifodalangan propozitsiyalar o'zaro zidlik yo'li bilan ham bog'lanadi. Masalan: *Boyning tashqi hovlisida Yo'lchidan tashqari hech kim yo'q* (Oybek) gapida ham ikki propozitsiya: 1) *boyning tashqi hovlisida Yo'lchi bor* 2) *boshqa hech kim yo'q* propozitsiyalari mavjud bo'lib, birinchisi tasdiq, ikkinchisi inkor qilinadi. Har ikki propozitsiya o'rtasida zidlik munosabati bo'lganligi uchun, *–dan tashqari* konstruktsiyadan anglashilgan mazmunning inkor yoki tasdiqligi gapning predikatidan anglashilgan mazmunning harakteriga bog'liq bo'ladi. Agar u inkor xarakterga ega bo'lsa, *–dan tashqari* orqali ifodalangan mazmun tasdiq harakterga ega bo'ladi yoki aksincha. *–dan tashqari* konstruktsiyasi bunday ma'no ifodalaganda, tashqari ko'makchisining o'rniga boshqa, o'zga ko'makchilarini ham qo'llash mumkin bo'ladi.

Zidlik munosabatli propozitsiyalarni ifodalovchi yuqoridagi tipdagi gaplarda murakkab hukm mavjud bo'lib, gap predikatining formasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ularning biri inkor, ikkinchisi tasdiq harakterga ega bo'ladi. Solishtiring:

Sizdan boshqa hamma kelishdi (Asqad Muxtor) gapida ikki propozitsiya: 1) *hamma kelishdi*; 2) *siz kelmadingiz* propozitsiyalari mavjud bo'lib, ikkinchisi implitsit ifodaga ega. Bunday sodda gaplarda ikki propozitsiya o'rtasida zidlik munosabati mavjud bo'lishi bilan birga umum va qism munosabati ham mavjud bo'ladi: *-dan tashqari* (boshqa, bo'lak, o'zga) konstruktsiyasi orqali ifodalangan propozitsiya qismni, ikkinchi propozitsiya esa umum ma'nosini bildiradi. Qism umumga zid qo'yiladi va undan istisno qilinadi. Bunday ma'nolarni zid a'zolar ham ko'rsatib turadi. Umumni ifodalovchi konstruktsiya tarkibida umumlashtiruvchi tasdiq yoki inkor harakterdagi hamma – hech kim, hamma narsa – hech narsa, hamma yer – hech qayer singari olmoshlar qismni ifodalovchi, *-dan tashqari* konstruktsiyasida esa chiqish kelishigidagi to'ldiruvchi vazifasida mazmunan yuqoridagi olmoshlar bilan bir sinfga kiruvchi, uning turi (qismi) bo'lgan so'zlar keladi.

Masalan yuqoridagi gapdasiz bilan hamma o'zaro zid qo'yilgan va siz hammadan istisno qilingan. Siz bilan hamma so'zlari shaxs ifodalash jihatidan bir sinfga oid so'zlardir. Siz hammaning bir qismi, shuning tarkibiga kiradi.

ADU Filologiya fakulteti O‘zbek filologiyasi yo‘nalishi bitiruvchisi
G‘alatova Mohigulning “O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar presuppozitsiyasi”
mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga ilmiy rahbar

x u l o s a s i

Lison va nutq mohiyatan bir butunlik bo‘lgan nutq faoliyatining ikki tomonidir va ularni bir biridan uzish mutlaqo mumkin emas. Ularga dialektik falsafaning, bir tomondan, umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab, zaruriyat, majburiyat, ikkinchi tomondan, alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat, tasodif, erkinlik kabi kategoriyalari orasidagi munosabatlar nuqtai nazaridangina yondashish mumkin. Shuning uchun har bir alohidalik bevosita ko‘zatishda berilmagan, idrokiy usul bilan ochiladigan, aql bilan ilg‘ab olinadigan umumiylikning, har bir hodisa - shunday mohiyatning, voqelik - imkoniyatning, oqibat esa sababning, tasodif zaruratning, erkinlik majburiyatning tajallisi ekanligini esdan chiqarmasligimiz kerak.

Ma'lumki, presuppozitsiyaning til sathidagi ahamiyati tilning mohiyatini belgilaydigan tejamlilik tamoyillari bilan belgilanadi. Presuppozitsiya hodisasi dastlab falsafa fani tarkibida, so'ng mantiq ilmida keyinchalik esa tilshunoslik sohasiga ko'chgan va shu sohalar tarkibida o'rganilgan va hozirgacha o'rganilib kelinayotgan hodisa sanaladi.

Xulosalanayotgan ushbu ishda ham tadqiqotchi yordamchi so'zlarning nutqiy voqelanish xususiyatlarini yoritib berishni o'z oldiga maqsad qilib olgan holda quyidagi vazifalarni amalga oshirgan: presuppozitsiyaning o'rganilishi haqida ma'lumotlar bilan tanishgan, presuppozitsiyaning mantiqiy va lingvistik turlari haqida fikr yuritgan, o'zbek tilidagi ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarning pragmatik xususiyatlari yoritib berilgan.

Talaba oldiga qo'ygan maqsadga erishgan. Ish mustaqil amalga oshirilgan. BMilar oldiga qo'yilgan talablarga javob beradi.

Shularni e'tiborga olgan holda, ishni ochiq himoyaga tavsiya etish mumkin.

Ilmiy rahbar

f.f.d. D.A.Nabiyeva